

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI SHARQ
FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
TURKIY TILLAR KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: **DO'STLIK HAMDA QARINDOSH-URUG'CHILIK MAVZUSI
BILAN BOG'LIQ TURKCHA MAQOLLAR SEMANTIKASI**

Bajardi:5220100–Filologiya (sharq tillari)
ta'lim yo'nalishi
bitiruvchi kurs talabasi
Bekmatova Dilnoza Axmadjon qizi
Ilmiy rahbar: Turkiy tillar kafedrası
dotsenti f.f.n. A. Tilavov

TOSHKENT- 2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

Sharq filologiyasi va falsafa
fakulteti dekani
f.f.n., dots J.T.Ziyamuhamedov

“ _____ ” _____ 2012yil

Turkiy tillar
kafedrası mudiri
f.f.n., dots Q.SH.Omonov

“ _____ ” _____ 2012yil

M U N D A R I J A

KIRISH	4-8
I BOB. TURK TILINING MAQOLLAR XAZINASIDA DO‘STLIK VA QARINDOSH - URUG‘CHILIK MAVZUSIDAGI MAQOLLARNING O‘RNI	9-28
1. 1. Turk tilining maqollar zahirasi va uning tasnifi	9-18
1.1.2. Do‘stlik mavzusida aytilgan maqol va o‘gitlar	18-21
1.1.3. Qarindosh - urug‘chilik mavzusidagi maqollar	21-24
1.1.4. Do‘stlik va qarindosh-urug‘chilik mavzusidagi maqollarning ma‘no xususiyatlari	24-28
II BOB. TURK TILIDAGI DO‘STLIK VA QARINDOSH - URUG‘CHILIK MAVZUSIDAGI MAQOLLARNING SEMANTIKASI.....	30- 37
2. 1 . Turk maqollaridagi milliylik va universallik (mushtaraklik)	.29
2. 2.1. Maqollarda milliylikning ifodalanishi	29-32
2.2.3. Maqollarda umumiylik (universallik)	32-34
2.2.4. Mazmunini ifodalashda grammatik omillar ta’siri	34-37
XULOSA	38-40
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	40-41
ILOVA	
Turk tildagi do‘stlik hamda qarindosh-urug‘chilik mavzusidagi maqol, matal va aforizmlar.....	42-46

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Maqollar - xalqning ming yillik turmush tajribalarida sinalgan hayotiy xulosalari, donoligi, ma'naviy boyligi, madaniy merosi durdonalaridir. Muhtaram Prezidentimiz „Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch“ asarlarida xalq og'zaki ijodini ma'naviyatni shakllantiruvchi asosiy mezonlarning avvalida sanab o'tishlari¹, ma'ruzalarida xalq donishmandligi bo'lmish maqol, matallardan foydalanishlari bu merosning ahamiyatini ko'rsatmoqda. Maqollar olami turli soha mutaxassislari hisoblangan olimlar – paremiologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, folkloristlar, etnograflarning tadqiqotlar olib borishlari uchun “hosildor maydon” hisoblanadi. Bu tabiiy hol, chunki maqol shaklan ixcham, sodda bo'lishiga qaramay, turli tadqiqot nuqtai nazarlaridan ko'rib chiqilishi mumkin. Maqollar semantik va struktur jihatdan to'la tugallangan matn sifatida tilshunoslikning til haqidagi ancha navqiron sohasi bo'lgan matn lingvistikasining ham diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Bir til, hatto o'zaro yaqin, hatto umuman bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi turli maqollar yagona mantiqiy turga tegishli bo'lishi va bir xil alomatni ko'rsatishi mumkin. Shu bois ular mantiqiy semantika va semiotikaga bevosita tegishli bo'ladi.

Ushbu bitiruv-malakaviy ishi hozirgi zamon turk tilidagi maqollarni ilmiy o'rganishga bag'ishlangan. Zero bu mavzu har doim turk tilshunosligining eng muhim va dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. XX asrda turk maqollarining tadqiq etilishi bo'yicha yirik ishlar amalga oshirilgan. Ammo, shunga qaramay, maqollar bilan bog'liq barcha masalalar o'rganib bo'lingan deyish mumkin emas. Shu bois biz tanlagan BMIning mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Xalq maqollarni yaxshi ko'radi: ularda dunyoning hikmati, donishmandligi mujassam. Maqollar purma'noligi bilan nutqimizni bezaydi, kundalik hayotimizning ajralmas bir bo'lagiga aylanib qolgan. Balki shuning uchundir fan

¹ Karimov. I. A. Yuksak ma'naviyat —yengilmas kuch. Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008, 17-bet

uchun qiziqarli bo'lgan xalq so'zlari muhim qimmatga ega. Haqiqiy ilm insonlar uchun kerak bo'lgan, hayotiy narsalarni o'rganadi. Mazkur ish umuman turk xalqi, uning dunyoqarashi, faoliyati, hayoti bilan qiziquvchi insonlarda katta qiziqish uyg'otadi. Shu bilan birga, turk maqollari va matallarini bilish tilni boyitadi, turk tilining obrazli (badiiy) qurilishini o'zlashtirishga yordam beradi, xotirani mustahkamlaydi, xalq donishmandligiga oshno qiladi. Qisqa, obrazli, tugallangan ma'no ifodalovchi lo'nda gaplarni, odatda, eslab qolish ham oson bo'ladi.

Mavzuning o'rganilganligi. Turk tilshunosligining maqollarni o'rganuvchi sohasi bo'yicha dastlabki ishlar Turkiyada XIX asrning oxirlarida paydo bo'lgan. Ya'ni turkcha maqol va matallar dastlab o'sha davrda to'plana boshlagan. Lekin, ularning ilmiy tadqiqi, asosan, XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Bu davrga kelib tildagi frazeologik qatlamning ilmiy konsepsiyasi shakllana boshlagan. Ungacha amalga oshirilgan ayrim ishlar frazeologiyaga oid ba'zi masalalarnigina qamray olgan.

Turkcha maqollarning lingvistik mohiyatini aniqlash, ularning boshqa aforistik birikmalar tizimi va tilning umumiy tizimida tutgan o'rnini belgilash, ularning yuzaga kelishi va nutqda qo'llanilish qonuniyatlarini o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Xalqning mentalitetini o'zida aks ettirgan, madaniyatning ajralmas qismi va tilning muhim qatlamini tashkil etuvchi, bebaho ma'naviy boylik sanalgan maqollar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan avlodlardan avlodlarga meros qilib qoldirilgan. Zero, turk xalqining ilmiy va madaniy an'analarida qadim zamonlardan boshlab xalqning yuksak til madaniyatini namoyon etuvchi oltin sahifalar mavjud. Bunga ishonch hosil qilish uchun Mahmud Koshg'ariyning «Devonu Lug'atit turk» asarini eslashning o'zi ham kifoya. Ushbu asar dunyoga kelgandan keyin turkcha maqollar arabcha *mesel* (ko'plik shakli *emsal*) "ertak, matal, misol, o'xshatish", *sav*, *tabir* "so'z, ta'bir" so'zlari bilan atala boshlangan.

Turkcha maqol, matal va iboralar to‘planib, turli hajmlarda kitob shaklida nashr etilgan. Lekin, birliklar qaysi xususiyatlariga ko‘ra maqol va matallar (*atasözleri*) deb, qaysi xususiyatlariga ko‘ra iboralar (*deyimler*) deb atalishi aniq belgilab qo‘yilmagan. Shu bois, turk tili frazeologiyasi haqida so‘z yuritilayotganda iboralar bilan bir qatorda maqol va matallar ham ko‘zda tutiladi.

Maqollar doimo insonlarni o‘ziga jalb qilib kelgan. Bunday tirik, “harakatlanuvchi” xalq donishmandligi tinimsiz to‘planadi, tadqiq etiladi. Tilshunos maqollarda inson nutqining xarakteri va qonunlarini, tarixini, undagi leksik ma’nolar va grammatik shakllarning almashinishini ko‘radi. Maqollar xalqning o‘ziga xos badiiy dunyoqarashi va didini tushunishga ko‘maklashadi. Har bir xalq o‘z maqol merosiga ega. Bu merosni to‘plash, tizimlashtirish, atroflicha o‘rganish, bir butun qilib nashr ettirish masalasi dunyo folkloristlarining diqqat markazida turadi. B. Rahmon, Sh. Roziy, X. Zarifov, B. Karimov, M. Afzalov, S. Ibragimov, Sh. Riza, O. Azimov, S. Xudoybergenov, R. Jumaniyazov, H. Shams, M. Raxmonov, R. Kamilovlar o‘zbek xalq maqollarini tadqiq qilish va chop ettirish ishiga muhim hissa qo‘shganlar. Shuningdek, B. Sarimsoqov tomonidan tuzilgan o‘zbek xalq maqollari to‘plami alohida o‘rin tutadi. Rus adabiyotida XVII asrdanoq maqollarni to‘plash boshlangan bo‘lib, XVIII asrda ilk marotaba V. N. Tatishev, A. I. Bogdanov, M. V. Lomonosov, V. Dal kabi olimlar nashrga tayyorlashgan.

Hozirgi zamon tilshunoslik fanida maqollarning qiyosiy-tipologik tadqiqi dolzarb hisoblanadi. Maqollar bu nuqtai nazardan deyarli tadqiq etilmagan: tilshunoslikda ikki (yoki bir necha) turli tizimdagi tillardagi maqollarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan yirik ishlar amalga oshirilmagan. Mazkur BMI muayyan ma’noda mavjud bo‘shliqni to‘ldirishi mumkin. Unda turkcha maqollar ko‘rib chiqildi. Misol tariqasida qo‘llanilgan maqollar manbalardan hech o‘zgarishsiz olib lug‘atlarga qo‘yilgan maqollar orasidan olingan.

Turk paremiologiyasida O‘mar Osim Aksoyning alohida o‘rni bor. U o‘zining "Maqollar lug‘ati"da “maqol” va “matal”, “frazologik oborotlar”

tushunchalariga ta'rif beradi. Turk paremiologi Parsa Tug'lachi esa "Inglizcha-turkcha idiomalar" lug'atini tuzgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur tadqiqot ishi quyidagi o'zaro bog'liq bir necha maqsad va vazifalarni o'z ichiga oladi. Ulardan birinchisi BMIga ilova sifatida turk maqollari to'plamini tuzish, ularni o'zbek tilidagi muqobillarini topish yoki tarjitma qilish, izohlashdir. Tadqiqotning eng asosiy maqsadi esa turk xalq maqollarini sematikasini o'rganishdir. o'rganishdir. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak bo'ladi:

- maqollar haqida turk va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan ilmiy materiallarni to'plash va o'rganish;
- maqollarning milliyligi, mavzulari, sintaktik, morfologik, qofiya, ifodaviylik xususiyatlarini tahlil etish;
- maqollarda yashiringan ichki mazmun, qissadan hissani aniqlash;
- maqollardagi sinonimlik, antonimlik va omonimlik hodisalarini aniqlash.
- maqollarning turkcha nutqdagi o'rnini belgilash.

BMIning yangiligi. Turkiyada maqollar sohasida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganiga qaramay, fan taraqqiy etgan sayin maqol va matallarning yangi-yangi qirralarini o'rganish zarurati tug'ilmoqda. Shu nuqtai nazardan, tilshunoslikning mazkur muammosi bakalavrluk darajasida ilk bor tadqiq etilmoqdaki, bu ishimizning yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning ob'ekti (predmeti). Tadqiqotning asosiy ob'ekti turk maqollaridir. Bunda asosiy e'tibor maqollarning semantikasi, mavzusi va sintaktik xususiyatlariga qaratiladi. Kelingan xulosalar va ilmiy ta'riflar aniq misollar vositasida dalillanadi.

Tadqiqotning manbalari. Maqollar to'plamlari² va turli lug'atlar, jumladan, turk va o'zbek tillarining izohli lug'atlari³, ikkitilli lug'atlar⁴,

² Aksoy Ö. A., Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, İstanbul, 1971 Bölge Ağızlarında Atasözleri ve Deyimler, 1. 2. Cilt, Ankara Üniversitesi Basımevi, Ankara, 1974. Сидорина Н. П.

shuningdek, badiiy asarlar tadqiqotning manbalari hisoblanadi. Ishda taniqli tilshunos olimlarining turli kitoblari, monografiyalarda berilgan maqol va matallar haqidagi ilmiy xulosalaridan foydalanilgan.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. BMIda turk maqollari, xususan, do'stlik va qarindosh-urug'chilik mavzusidagi turkcha maqollarning nutqdagi o'рни ta'kidlanadi. BMI o'ziga yarasha nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida ilovada keltirilgan maqollar hajmini kengaytirib, mavzu bilan bog'liq turkcha maqollarning turkcha o'zbekcha lug'atini tuzish, darslarda qo'llash mumkin. Keltirilgan nazariy fikrlar, xulosalar turk tili leksikologiyasi, turk adabiyoti va folklor darslarida maqollar bilan bog'liq mavzuni o'tishda material bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ishning tuzilishi. BMI Kirish, 2 ta alohida bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

“Турецко-русский словарь пословиц и поговорок”, Москва, Толмач, 2006; Йўлдошев И ва Тунжай Ўзтурк, Ўзбек ва турк мақоллари, иборалари. Т., 1998;

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1-2- жилдлар, М., «Русский язык», 1981; Türkçe Sözlük, TDK, 9. Baskı, 1.-2. Ciltler, Ankara, 1998;

⁴ Büyük Rusça-Türkçe Sözlük, Moskva, «Russkiy yazık», Multilingual, İstanbul, 1995; Büyük Türkçe-Rusça Sözlük, Moskva, «Russkiy yazık», 1977, Multilingual, İstanbul, 1994

I BOB. TURK TILINING MAQOLLAR XAZINASIDA DO‘STLIK VA QARINDOSH - URUG‘CHILIK MAVZUSIDAGI MAQOLLARNING O‘RNI

1. 1. Turk tilining maqollar zahirasi va uning tasnifi

Maqollar mehnatkash xalqning butun hayotiy, ijtimoiy-tarixiy tajribasidan shakllanadi, uning ko‘p asrlik ijtimoiy-tarixiy tajribasi aks etgan so‘zlardir. Bizningcha, bunday mulohazalar aksiomatik xulosaga o‘xshaydi. Bunda tadqiqotchining vazifasi – bularning qanchalar adolatli ekanligi va bir-biriga qarindosh va bir-biridan ancha uzoq bo‘lgan turli tillar asosida teranligini ko‘rsatishdir.

Maqollarning, ayniqsa, mazmun nuqtai nazaridan kompleks tadqiq etilishi madaniyatshunoslik, etnolingvistika va etnografiya singari fan sohalari bilan bevosita bog‘liqdir. Madaniyat, odatda, til vositasida bir avloddan boshqasiga o‘tadi. Ijtimoiy taraqqiyotning ilk bosqichlarida bu og‘zaki shaklda, jumladan, xalq og‘zaki ijodi, xususan, bunday ijodning eng ko‘zga ko‘ringan janrlaridan biri bo‘lgan maqollar vositasida amalga oshirilgan.

“Maqollar - xalq og‘zaki ijodi merosining eng keng tarqalgan , eng xarakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o‘ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushning toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchli, metaforik tarzda yashiringan. Maqollar, ularni yaratgan xalq qancha umr ko‘rsa, ming yillar bo‘yi tirik jon kabi saqlanadi. Maqollarni yuzaga chiqargan xalq tili ham o‘zining obrazli qudrati bilan ming yillar bo‘yi saqlanib kelaveradi”⁵

Yana shuni unutmaslik kerakki, maqollar, ularni yaratgan xalqning donoligini o‘zida mujassam etadi. Xalq donishmandligi – yirik bir fan. Unga tajribali kishilar ega bo‘ladilar. Davrining va undan keyingi asrlarning buyuk donishmandi, eramizdan oldingi IV asrning yirik faylasufi Aristotel shunday degan edi: “Donishmandlik ba’zi sabablar va ibtidolar haqidagi fandir...

⁵ O‘zbek xalq maqol va matallari, Toshkent, 1985, 86-b.

Donishmandlikni, adolat nuqtai nazaridan ilohiy demoq mumkin va shu bois donishmandlik, birinchi navbatda, tangriga o‘xshaydi...”⁶

Etnolingvistika - tilning madaniyat, xalqning o‘zi, uning urf-odatlar va tasavvurlari bilan aloqasini o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishidir. Amerika etnolingvistikasining eng yirik namoyandasi E. Sepirning faraziga ko‘ra, “tilning madaniyatni o‘rganishning ibtido sifatidagi qiymati yanada ortadi”. Tom ma’noda u yoki bu jamiyatning madaniyat modellari tizimi o‘sha jamiyatni aks ettiruvchi tilda o‘z ifodasini topadi.⁷ Maqol - jamiyat “parchasi”ning modelidir. Shu bois uni o‘rganmasdan birorta dunyo jamiyatini tushunishning ma’nosi yo‘q.

Maqollarni o‘rganmay turib, “xalqlarning kelib chiqishi va etnik tarixi, dunyo sivilizatsiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan xalq, uning madaniyati va turmushining o‘ziga xosliklarining shakllanishi haqidagi tarixiy fan” etnografiyani chetlab o‘tishi mumkin emas.

Shu narsa aniqki, maqollarning tadqiq etilishi nafaqat ko‘pchilik fanlarning rivojlanishi uchun favqulodda foydali, muhim va zarur, balki, aksincha, maqollarning chuqur va ko‘pqirrali tahlil etilishi o‘sha ko‘pchilik fanlarni jalb etmasdan imkonsizdir.

Maqollar umumlashgan ma’no kasb etadi. Bu borada tadqiqotlar olib borgan turk olimi Karim Yundning quyidagi so‘zlari e’tiborni tortadi: “...maqollar endigina yer qa’ridan qazib olingan ma’danga o‘xshaydi. Ilm chirog‘i ostida ularga ishlov berish va ta’sirli jihatlari, nozik qirralarini namoyon qilish kerak.”⁸ Turk olimi ushbu o‘xshatish vositasida turkcha maqollarni bitmas-tuganmas boylikka qiyoslar ekan, ular ustida chuqur tadqiqot olib borish zarurligini ta’kidlaydi.

⁶ Aristotel, Metafizika, Toshkent, 1999, 8-b.

⁷ Sepir, 1965, 233-b.

⁸ Yund, Kerim, Atasözlerinde Kişi Adları, Türk Yurdu, Cilt: 6, Sayı: 334, Ankara, 1967, S. 18.

O‘mar Osim Aksoy – XX asr turk maqol to‘plovchisi edi. Uning 1994 yilda nashr etilgan “Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü”⁹ to‘plami hozirgacha eng mukammal to‘plam hisoblanadi.

Rus filologi Mixail Iosifovich Shaxnovich «Russkie poslovisi i pogovorki kak istoricheskiy istochnik» dissertatsiyasida (1936) maqollarni bir millatning tarixi, oilaviy munosabatlari huquq, til va dinini o‘rganish uchun qo‘llanishi mumkinligini ilgari surgan. Shaxnovich «Poslovisi i pogovorki o popax i religii» (1933), «Voennie poslovisi russkogo naroda. Sbornik poslovis i krilaticheskikh slov» (1945), «Russkaya kniga lyubvi» (kones 80-x) nomli to‘plamlar tuzgan.

Mazmun, mundarija nuqtai nazaridan “maqol - qisqa rivoyatdir; maqol o‘z nomi bilan “quruq nutqning maqol emasligini” bildiradi. Maqol – xulosa, mulohaza, hukm, nasihatdir”. Maqolga xos jumlar nutqqa maqol ko‘rinishida kiradi, ammo ularda rivoyat, naql mujassam emas.

Xalq og‘zaki ijodidagi barcha sanab o‘tilgan janrlardan maqollardan eng yaqini matallardir. “Matal, xalq bergan ta’rifga ko‘ra, mitti bir gul bo‘lsa, maqol – mevadir; Bu eng to‘g‘ri xulosa. Matal – yon ifoda, ko‘chma nutq, oddiy majoz, ifoda usuli, ammo naqlsiz, xulosasiz; bu maqolning birinchi yarmidir”.

Maqollar obrazli va, aksincha, obrasiz bo‘ladi. Masalan: 1. «Allah deldigi boğazi aç bırakmaz» (Olloh o‘zi teshgan tomoqni och qoldirmaydi, ya’ni Olloh insonni yaratgach uning rizqini ham beradi); 2. «Allah bilir kul da sezer» (Olloh bilguvchi, ammo inson ham sezuvchidir).

Nutqda muqobilik tamoyiliga ko‘ra ko‘p ma’noda qo‘llanila oladigan qisqa, nutqda mustahkam o‘rnashgan, ritmik tashkillashgan obrazli nutqqa maqol deyiladi. Mazkur ta’rifda ko‘rsatib o‘tilgan belgi va alomatlar – qisqalik, turg‘unlik, ritm, ko‘p ma’nolilik va b. Shuningdek, maqollar to‘g‘risida ularning xalqning ijtimoiy-tarixiy va turmush tajribalarini umumlashtirishi ham ta’kidlanadi

⁹ Aksoy Ö. A., Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, İstanbul, 1971

Maqolning janr sifatidagi yagonaligi, agar uning tarixiy kelib chiqishi xalq turmushi, tili va san'atining o'ziga xos hodisasi sifatida tahlil etiladigan bo'lsa, yanada oydinlashadi.

Ilk maqollar qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Maqollarning paydo bo'lish sinoatlari ularning mazmunida yashiringan. Maqollarning ko'pchiligi insonlar orasidagi ishlab chiqarish munosabatlari, urf-odatlar maydoniga kirib boradi va shu maydonning ajralmas qismiga aylanadi. Maqollardagi fikrning she'riy ifodasi voqelikning ongsiz-badiiy shaklidir.

Maqoldan farqli o'laroq, matal – nutqda emotsional baho uchun mavjud bo'lgan va bir qator o'xshash hayotiy hodisalarga nisbatan muqobillik tamoyiliga ko'ra qo'llaniluvchi umumqabul qilingan obrazli ifodadir... Agar maqol nutqni alohida mazmun, yangi bir butun xulosa bilan mustahkamlanayotgan bo'lsa, matal bir tugal fikr (jumla), xulosa ichiga to'laqonli bir bo'lak sifatida kiritiladi.

Maqol va matallar bir qator ilmiy tadqiqotning ob'ekti bo'lib, turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqilgan. Turli mintaqalarda tadqiqotlar olib borgan olimlarning tadqiqotlari o'zining qimmati bilan diqqat-e'tiborni o'ziga tortadi.

Turk tadqiqotchisi Shukru Elchinning “Turk adabiyoti” (Türk edebiyatı) jurnalida chop etilgan Maqollar (Atalar sözü) maqolasida maqollarga quyidagicha ta'rif keltiriladi: “Qadimgi turk tilida ko'kturk obidalarida, uyg'urlardan qolgan asarlarda, XI asrda qoraxoniylar davrida Sharqiy turklar yashagan hududda “so'z, xabar, shuhrat” ma'nolarida keluvchi **“sa-”** fe'lidan yasalgan **“sab-sav”** so'zi 14-asrda Islom dini ta'sirida bo'lgan qipchoqlarda uchraydi”.

Bugungi kunda faqat qipchoqlarda “chap” (çap) shakli va unli bilan “shan, şöhet” (shon-shuhrat) mafhumlarida ot bo'lgan so'z ko'kturkchada “o'git” ma'nosi kengayib, turfon matnlarida “Otalar so'zi” (Atalar sözü) shaklida qo'llanilgan. Ko'kturklar davri va undan oldin ayni shu ma'noda kelgan **“sav”**ni Mahmud Koshg'ariyning “mektup” (maktub), “hikaye” (hikoya) tarixiy

hodisa bilan birga ota-bobolardan qolgan o'g'itlarni ifodalash maqsadida belgilagani ma'lum.

XI asrda turk adabiyotining eng bebaho namunalaridan biri bo'lgan "Qutadg'u bilig" asarida Yusuf Xos Hojib arab va eron ta'sirida adabiy tilda "mesel" (masal) ta'birini qo'llagan. Habash tilida "mese, mesâle", oromiyda "mesla" va "masâl" so'zi arabchada "masal, mesel" bo'lib, ko'plik shakli "emsal" hisoblanadi. Uning ma'nosi qiyoslash bo'lib, ma'no kengayishi natijasida "otalar so'zi"ga aylangan. Fors va turk adabiy tillariga o'tgandan keyin qisman xalq tiliga ham kirgan. Ushbu so'zning arab tilidan kirgan "*mesel, derb-i emsal, darb-i mesel*" *darb-i mesel, durub-i emsal* shakllarining XX asr boshlariga qadar yozilgan muhtalif va fikriy asarlarda ham uchratishimiz mumkin. Ushbu atamalar qisman xalq tiliga o'zlashgan (*mesel*). Ana shunday asarlardan biri «*Durub-i Emsal-i Osmaniyye*» (*Usmonli tilidagi maqollar*)dir. O'z davrining eng ko'zga ko'ringan asari hisoblangan va 2500 maqol, matal, ibora va boshqa turli birliklarni o'z ichiga olgan ushbu to'plam XIX asrning 70-yillarida nashr etilgan. Muallif, o'z davrining taniqli tilshunos olimi hisoblangan Shinosiy asarni «*Hikmet - ül Avam*», («Xalq hikmatlari») deb nomlagan.¹⁰ Asarda berilgan maqol, matal va iboralar tilning o'ta muhim birliklari sifatida ta'kidlansa-da, ulardan har birining to'la ilmiy ta'rifi keltirilmagan. Asar o'z nomiga ko'ra maqollar to'plami bo'lsa-da, unda maqollardan tashqari iboralar, matallar, hatto, erkin so'z birikmalariga ham keng o'rin berilgan. Ushbu asar 1885 yilda Abuzziyo tomonidan qayta nashr etilib, unga 4004 maqol, matal, ibora va boshqa turli birikmalar kiritilgan¹¹. Muallif asarning oxirida *darb-i mesel* va *tabir* haqida ba'zi ta'riflar ham keltirib o'tish bilan bir qatorda, turk tilidagi ba'zi iboralarning fransuz olimi Littlening «Umumiy qoidalar» asarida berilgan o'lchovlar bo'yicha fransuz tilida

¹⁰ Aksoy Ö. A., Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, İstanbul, 1971, s. 14

¹¹ Gür Alim, Ebuzziya Tevfik. Hayat, Dil, Edebiyat, Basın, Yayın ve Matbaacılığa Katkıları, T.C. Kültür Bakanlığı Kültür Eserleri, Türk Tarih Kurumu Basımevi – Ankara, 1998, s. 25

expression deb atalishi, turk tilida esa shakl va ma'nosiga qarab, *istilah* yoki *tabir* deb yuritilishini ta'kidlaydi.

Abuzziyo to'plamda ba'zi maqol va iboralarning shaklini o'zgartirib bergan. Masalan, *Ağaç yaşken eğilir* ('daraxt yoshligida egilur') maqoli *Kart ağacın eğilmesi güç olur* ('Qattiq daraxtning egilishi qiyin bo'lur') deb, *Denize düşen yosuna sarılır* ('Dengizga tushgan xasga yopishar') maqoli *Denize düşen yosundan imdat umar* ('Dengizga tushgan xasdan yordam kutadi') shaklida berilgan. «*Durub-i Emsal-i Osmaniyye*» turkcha maqol va iboralar bo'yicha yozilgan ilk asar bo'lganligi bois, kamchiliklariga qaramay, turk frazeologiyasining shakllanishi mavzusida olib borilgan tadqiqotlarda alohida eslab o'tiladi.¹²

M. Said Tekezoda tomonidan 1895 yilda nashr etilgan «*Durub-i Emsal-i Türkiyye* vey *Atalar sözü*» nomli maqol va iboralar to'plami 5742 maqol va iborani, 1899 yilda Shamsiddin Somiy tomonidan nashr etilgan «*Kamus-i Türki*» (*Turk qomusi*) ham 5000 dan ortiq birlikni o'z ichiga olgan.

Turkiyada maqol va matallarni to'plash ishlari Turkiya Respublikasi tashkil etilgan (1923 yil)dan keyin mamlakat va uning tashqarisida davom etdi. Masalan, Ozarbayjon adabiyot jamiyati tomonidan 1926 yilda 2000 ga yaqin turkcha maqol, matal va iborani o'z ichiga olgan «*Atalar Sözləri*» deb nomlangan to'plam turk tilida chop etildi.

Turkiyada Sadettin Nuzhat va Mehmet Farid tomonidan to'planib, 1926 yilda nashr etilgan «*Konya Vilayet Halkiyyat ve Harsiyyatı*» ("Konya viloyati xalq og'zaki ijodi va madaniyati muammolari") kitobida «*Atasözləri*» ("Maqollar") bo'limida 2057 maqol, «*Tabirler*» deb nomlangan bo'limida 279 ibora jamlangan.

Turk maqollari va iboralari Husayn Kozim Qadriyning birinchi jildi 1927 yilda, ikkinchi jildi 1928 yilda Turkiya Maorif vazirligi tomonidan nashr etilgan «*Türk Lügatı*» da qaytadan to'plandi. Ushbu lug'atning uchinchi jildi 1943

¹² Türk Dünyası El Kitabı, Üçüncü Cilt, Ankara, 1992., s. 343.

yilda, to'rtinchisi 1945 yilda Turk Til Qurumi tomonidan chop etildi. To'plamda «Maqollar» sarlavhasi ostida berilgan birliklarning soni 6200 dan ortiq. Kitobda maqollar va iboralarga alohida ta'riflar keltirilgan. Bunda muallif XIX asrda Abuzziyo tomonidan maqol va iboralarga berilgan ta'rifdan foydalangan.

Sa'diy Krimlining «*Atalar Sözü*» deb nomlangan va 1939 yilda nashr etilgan to'plami 4882 maqol, matal, ibora va boshqa turli birliklarni o'z ichiga olgan. 1943 yilda Istanbulda Ramziy nashriyotida Mustafa Nihat Ozon chop ettirgan «*Türkçe Tabirler Sözlüğü*» 4000 dan ziyod iborani o'z ichiga olgan. Muallifning 1952 yilda chop etilgan, 8257 maqol va 1470 iborani o'z ichiga olgan to'plami va 1956 yildagi 8600 maqol va 2250 iborani o'z ichiga olgan «Türk Ata Sözləri» deb nomlangan qayta nashrida Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari yuqorida sanab o'tilgan lug'at va to'plamlar uchun asosiy manba qilib olinganligi alohida ta'kidlangan.

1963 yilda Faridun Fozil Tulbantchi tomonidan tuzilib nashr etilgan 15080 birlikni o'z ichiga olgan «Türk Atasözləri ve Deyimleri» lug'ati 402 betdan iborat.

1971 yilda Turkiya Milliy kutubxonalar Bosh boshqarmasi tomonidan ikki jildli «Türk Atasözləri» to'plami nashr etiladi. Jami 400 sahifadan iborat, shundan 15 beti so'zboshi, 6 beti bibliografiya, va 9 betlik lug'atchani o'z ichiga olgan ushbu to'plamda jami 16 141 birlik o'rin olgan. Turkiya Respublikasi Milliy ta'lim vazirligiga qarashli boshqarma tomonidan nashr etilgan.

Bugungi kunda Onado'li xalqi, Bolgariya turklari, G'arbiy Trakiya, Yugoslaviya, Kipr va Rodosda yashayotgan turklar qisman Usmonli davlati ushbu ta'birni davom ettirmoqdalar. So'nggi 40-50 yil ichida Turkiyada "otalar so'zi", "ota so'zlari" atamaları keng tarqaldi. Undan tashqari Onado'lida, masalan, İçel tumanida qo'llaniluvchi "deyişet" kabi mahalliy so'zlarning birligini ham unutmaslik kerak.

Gʻarb turklaridan tashqarida qolgan turk urugʻlarida esa kelib chiqish nuqtai nazaridan tadqiq etishga arzigulik turli otlar ham koʻzga tashlanadi. Sibirning shimoli-sharqida Lena daryosi yaqinlarida yashovchi sahalar, yaʼni yoqutlar maqollarni “xohono”, tobollar “takmak”, oltoyliklardan Katuna va Teletsk koʻli orasida joylashgan oʻrmonlarda yashaydigan “yış kişi – orman adami”, yaʼni tuvalar (uranha) “ülgercomak”, Issiqkoʻldan Qoʻqon tomonga choʻzilgan hududlar Oloydan quyi tomonga, Kuen-Luk togʻlarining janubiy qiyaliklarigacha yastanib yotgan hududda, Qoʻqonning janubidagi Pomir yaylovlaridan Sharqiy Turkistonga tegishli Sarg koʻli mintaqasida yashagan qirgʻizlar, Sharqda Yettisuv va Semipalatinsk, gʻarbda qisman Ural daryosi, shimolda Oltoy togʻlarining gʻarb tomonlari, janubda eski Buxoro va Qoʻqon xonliklarining shimoliy qismini oʻz ichiga olgan hududlardagi qozoqlar, Amudaryo deltasi bilan, Buxoro, Xorazm, Samarqand, Shahrisabz, Xiva, Fargʻona, Qorakoʻl kabi mintaqalarda va qisman Afgʻonistonda yashagan oʻzbeklar va ularning bir qabilasi hisoblangan Amudaryo atrofidagi qoraqalpoqlar singari Oʻrta Osiyo turkiy xalqlari, shuningdek, Rossiya hududlarida yashaydigan boshqirdlar va qrim tatarlari arab tilidan oʻzlashgan “maqol”, Turkiston, Eron, Afgʻonistonda yashagan turkmanlar esa ham maqol, ham naql deb atashadi (H. Namık Orkun, Yeryüzünde Türkler, İstanbul, 1944, Kenan Matbaası).

Yuqorida aytib oʻtilgan “otalar soʻzi” (atalar sözü) arabcha “nushb nasihatb mafiza”, forsha “pand” va moʻgʻulcha “erdeni uge” (erdeni üge) ifodalagan fikrni bizgacha olib kelgan soʻzlardir. Maʼno jihatdan ham otabobolardan qolganligi maʼlum boʻladi. Iroq turklari maqollarni “eskilar soʻzi” deyishadi.

Ağaç yaşken eğilir (Daraxt yosh nihol ekan egiladi) maqoli 2 xil maʼnoda qoʻllanadi. Birinchisi, yosh niholni egish osonligi, katta daraxtni egib boʻlmasligini bildirsa, ikkinsi maʼnosi maqolning ijod etilgan koʻchma maʼnosidir: “Bolani kichikligidan tarbiya qilish kerakligi, inson ulgʻaygach, uni tarbiyalash mushkul ekanligi” tushuniladi.

Mualliflari noma'lum bo'lgan bunday til mahsuloti (maqollar) hayotning muayyan prinsiplari, fikrlar, din, ahloq, huquq, iqtisod, tarbiya, urf-odat va an'analar, tabiat hodisalaridan chiqadigan qoidalar so'z vositasida avlodlardan aqlodlarga o'tib keluvchi hikmatli jumlar ba'zan latifa shaklida izohlanuvchi o'git, pand-nasihatlaridir.

Anonim xarakterga ega bo'lgan, ota-bobolardan qolganligi ta'kidlanadigan bunday qisqa, ixcham, qoliplashgan hukmni ifodalovchi jumlar turk xalqining hayot falsafasi ifodasidir. Shundan bo'lsa kerak, Shinosiyning *Durüb-i Emsâl-i Osmâniye* nomli asarining so'z boshisida maqollarga "hikmet-ül avâm" (halk hikmeti) tushuncha va falsafasi sifati berilgan.

Muayyan til, madaniyat, mantiq, tajriba, zavq va muhokama saviyasida yuzaga kelgan bunday adabiy mahsulotlarning ilk o'rnaklari, asosan, manzum (nazm) shaklida bo'lgan. Turk tafakkurida alohida jumla yoki misrada so'z takrorlaridan yuzaga kelgan tanozir, ma'no qarama-qarshiliklaridan "barat tazod va umumiy tovush elementlarini tashkil etuvchi vazn va qofiya manzumalar bizgacha yetib kelgan". (Shinosiy)

Mansur (nasriy) maqollar nazmiy shaklning parchalanishi, uni tashkil etuvchi unsurlarning tushib qolishi, unutilib ketishi natijasida yuzaga kelgan va mustaqil jumlar shaklida tilda o'z shaklini olgan.

Frazeologiya fani talablariga javob bera oladigan maqol va ibora to'plamlari Turkiyada XX asrning 80- yillaridan boshlab nashr etila boshlandi. Bunda turk olimi Omer Asim Aksoyning xizmatlari katta. O. A. Aksoy to'plagan turkcha maqol va iboralar Turkiya Respublikasida maqollar sohasida amalga oshirilgan jiddiy ishlardan biri hisoblanadi.¹³ Olim bugungi kunga kelib, turk tilshunosligida olimlar orasida maqollar haqida yagona fikr mavjud bo'lsa-da, maqollar to'plamlari tuzilishida shu yagona fikrga asoslanilmayotganligi,

¹³ Aksoy, Ömer Asim, *Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü*, 1. Atasözleri Sözlüğü, İstanbul, İnkilap Kitabevi, 1971, 1974; *Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü* - 2. Bölge Ağzlarında Atasözleri ve Deyimler, 1. 2. Cilt, Ankara Üniversitesi Basımevi, Ankara, 1996.

olimlarning tuzgan barcha lugʻatlarida maqollar, matallar, aforizmlarning aralashtirib talqin qilishlarini tanqid qiladi.¹⁴

1.1.2. Doʻstlik mavzusida aytilgan maqol va oʻgitlar

Turk tilida doʻstlik mavzusida aytilgan maqol va oʻgitlar salmogʻi uncha katta emas. Ular sirasiga quyidagi maqol va aforizmlarni kiritish mumkin: *Açma sırrını dostuna, o da söyler dostuna. Boğazı büyüğün dostu olmaz. Dosta çok varan ekşi yüz görür. Her şeyin yenisi dostun eskisi. Kuzudan post ayıdan dost olmaz. Akıllı düşman akılsız dosttan hayırlıdır. İyi günümün dostu, kötü günüm geçti, gel! At ver dost ol, kız ver düşman ol. Dost ile ye iç, alışveriş yapma* va b. Quyida ana shu maqol va aforizmlarni qisqacha tahlil qilishga harakat qilamiz:

Açma sırrını dostuna, o da söyler dostuna (Ochma siringni doʻstinga, u ham ochar doʻstiga) maqoli yagona maʼnoga ega boʻlib, unda majozilik yoʻq. Ushbu aforistik birikmada insonning “shaxsiy siri” boʻlishi kerakligi, uning ikkinchi kishi bilishi, boshqalarning ham bilishi demakligi taʼkidlanadi. Yoki doʻstlik haqida aytilgan *Boğazı büyüğün dostu olmaz* (soʻzma-soʻz: *tomogʻi katta odamning doʻsti boʻlmas*) maqoli milliy xususiyatga ega boʻlib, unda “insonning nafi yomon boʻlmasligi kerakligi, undan tashqari kishi topgan narsasini atrofdagilar bilan baham koʻrishi kerakligi, faqat oʻzi, oʻz nafsini oʻylagan kishi doʻst orttira olmasligi” uqtiriladi. Albatta haqiqiy doʻst, moddiy manfaatdorlik uchun doʻst boʻlmaydi, moddiy manfaatdorlikni oʻylagan kishidan esa doʻst chiqishi mumkin emas. Shunga qaramay, inson “qoʻli ochiq”, saxiy, topgan bir burda nonini atrofdagilar bilan baham koʻrishi kerakligi mazkur maqol vositasida taʼkidlangan.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, turkcha maqollarda doʻstlikning baʼzan moddiy manfaatdorlik bilan bogʻlanishini kuzatish mumkin. *Dosta çok varan ekşi yüz görür* (*Doʻstiga koʻp borgan burishgan yuz koʻradi*), *İyi günümün dostu, kötü günüm geçti, gel!* (*yaxshi kunim doʻsti, yomon kunim oʻtdi, kel!*),

¹⁴ Aksoy A.O., Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, İstanbul, 1971, s.52

Kuzudan post ayidan dost olmaz (qo'y (terisi)dan po'stin, ayiqdan do'st bo'lmas) kabi.

Turklar azaldan chorvadorlik bilan shug'ullanib kelgan xalq. Shu bois kishilar otga mehr qo'yishgan va bu holat maqollarda ham o'z aksini topgan. Xalqning maqollar zahirasidan ot bilan bog'liq matallar keng o'rin olgan. Ot qishloq xo'jalik ishida dehqonning 'og'irini yengil qiluvchi vosita', yuk tashishda kuchli transport vositasi, janglarda ishonchli ulov, xullas, insonning ajralmas do'sti, yordamchisi bo'lganligi frazeologik birliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Tajribali chorvador otlarni "chertib-chertib" tanlagan, otning zotiga, tuzilishiga katta e'tibor bergan. Qolaversa, ot sotib olinayotganda uning tashqi ko'rinishiga alohida diqqat qaratilgan. Masalan, *Yağmurda dostun atı, düşmanın koyunu satılsın* maqolida ana shu narsaga urg'u berilgan: *Yomg'irda do'stning oti, dushmanning qo'yi sotilsin*, chunki yog'mir ostida turgan otning tanasi yaltirab, yanada ko'rkamlashadi, narxi ham oshadi, qo'yning esa juni badaniga yopishib, ozg'inligi bilinib qolib, narxi pasayishi mumkin.

Yoki At ver dost ol, kız ver düşman ol (Ot ber do'st bo'l, qiz ber dushman bo'!) maqolini ham turk tilidagi do'stlik bilan bog'liq maqollar guruhiga kiritish mumkin. Ushbu maqolni ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda tushunish mumkin. Maqol o'z ma'nosida, turk xalqida kishilar orasida mol oldi-berdisi yaxshi munosabatlar, o'zaro yordam, moddiy qo'llab-quvvatlash munosabatlarini mustahkamlashini ifoda etsa, ya'ni "biriga ot berib, uning "og'irini yengil qilish" va bu bilan do'stlik, hamjihatlikning mustahkamlanishi ta'kidlansa, ko'chma ma'noda, asosan, maqolning ikkinchi qismi "qiz berib dushman bo'linishi" mumkinligiga urg'u beriladi. Bu bilan "Qiz bergan kishi" quda tomon bilan bilan dushman bo'lishi muqarrarlighi emas, qudachilik munosabatlarini o'rnatishning o'ta qiyin masala ekanligi, inson (ya'ni "qiz")ning boshqa oilaga uzatilishi, mol (ya'ni, ot)ni bozorga olib chiqib sotilishi yoki birovga sovg'a qilib yuborilishi umuman farqli narsalar ekanligi alohida ta'kidlanadi. Mazkur maqol turk tilidagi maqollarning ikkinchi qismi

(*Kız ver düşman ol!*) asosiy ma'no yukini tashishi, birinchi qismi (*At ver dost ol!*) esa qofiya, ohang uchun berilishini bir karra tasdiqlaydi.

Maqollarda yana shunday xususiyat borki, bir maqolda ilgari surilgan fikr boshqa maqol orqali inkor qilinganga o'xshab tuyuladi, lekin aslida unday emas, maqollarning ostida yotgan chuqur, teran ma'no, ular qanday shakl, qanday obrazga ega bo'lmasin, baribir hayot haqiqatiga, xalqning badiiy tafakkuriga mos bo'ladi, uni ifodalab keladi. Masalan, *Dost ile ye iç, alışveriş yapma* (*Do'st bilan yeb-ich, lekin oldi-berdi qilma!*) maqoli bundan oldingi maqol (*At ver dost ol!*)ga sal teskariday tuyuladi. Aslida esa unday emas. Maqollarning zamirida yotgan ma'no shunchalik teranki, ularning mag'zini chaqish, to'g'ri xulosa chiqarish zarur. Ya'ni *Dost ile ye iç, alışveriş yapma* deganda do'stlar bilan bir narsani baham ko'rish, istalgancha yeb-ichish mumkin-u, oldi-berdi qilmaslik kerakligi tushunilmasligi kerak. Maqoldan chiqadigan xulosa shuki, ba'zan "oldi-berdi" munosabatlari kishilar orasidagi eng yaqin munosabatlarni ham buzishi mumkinligi, yaqin kishiga yordam berilar ekan, har qanday oqibatga tayyor bo'linishi, agar do'stlik haqiqiy bo'lsa, unga hech nima halal bera olmasligi uqtiriladi.

O'zaro yaqin kishilar orasidagi "oldi-berdi" munosabatlari turkcha "*Akrabayla ye iç, yad el ile konuş*" (*Yaqin qarindosh bilan yeb-ich, begonalar bilan gaplash*) maqolida ham aks etgan. Bu maqoldagi "*konuşmak*" (*gaplashmoq*) fe'lining ma'nosi, aynan "oldi-berdi qilmoq"dir. Endi *Dost ile ye iç, alışveriş yapma* va "*Akrabayla ye iç, yad el ile konuş*" maqollarini solishtiradigan bo'lsak, ularni o'zaro sinonim hisoblash mumkin. Chunki, agar do'stni qarindosh bilan tenglashtiradigan bo'lsak, ularning har ikkisi bilan "eb-ichish" yaxshi, lekin "mol oldi-berdisi" qilish do'stlik va qarindoshlikka putur yetkazishi mumkinligini uqtiradi.

Shuni unutmaslik kerakki, o'zbek xalqida "Hisobli do'st ayrilmas" maqoli orqali ta'kidlanayotgan maqsad yanada aniqlashtiriladi, ya'ni do'st bilan "oldi-berdi" munosabatlarining to'g'ri hisob-kitobga asosan olib borilishi

do'stliklarning buzilmasligini ta'minlashi ta'kidlanadi. Buni rus tilidagi "Dengi lyubit schyot" matali yana bir karra tasdiqlaydi.

Turk tilida do'stlik haqida aytilgan maqollarda "do'st" so'zining ishtirok etishi shart emas. Demak, do'stlik mavzusi maqollarda boshqa so'z va vositalar orqali ham ifodalanishi mumkin.

Inson boshqalarga ijobiy va salbiy munosabatda bo'ladi. Lekin ijobiy munosabatda bo'lar ekan u turli maqsadni ko'zlashi, ya'ni bir qarashda ijobiyga o'xshagan munosabat g'arazli bo'lishi ham mumkin. Haqiqiy ijobiy munosabat ostida g'araz yotmaydi. Masalan, *Anca beraber kanca beraber ('o'la-o'lguncha birga')* deganda ham samimiy do'stlik, vafodorlik ifodalanadi: *Seni burada tek başına bırakıp, çekip gitmem yakışık olmaz. Anca beraber, kanca beraber.* Tarjimasi: *Seni bu yerda yolg'iz qoldirib ketish menga yarashmaydi. O'lsak ham birga o'lamiz.*

Insonlar orasidagi ijobiy munosabatlar bir maqsad yoki shaxsiy manfaat uchun ham o'rnatilishi mumkin. Masalan, *Iyi günümün dostu kötü günüm geçti gel* maqoli faqat yaxshi kunlardagina do'st, boshga ish tushganida o'zini begonadek tutuvchi kishilarga qarata aytilgan (*Yaxshi kunimning do'sti, yomon kunim o'tdi, kel!*).

1.1.3. Qarindosh - urug'chilik mavzusidagi maqollar

Turk tilining maqollar xazinasida qarindosh-urug'chilik mavzusidagi maqollar salmoqli o'rinni egallaydi. Ushbu guruhga kiruvchi maqollarni turli jihatlariga ko'ra kichik sinflarga ham ajratish mumkin. Bunday sinflardan biri qarindosh-urug'chilik darajasiga ko'ra ajratilgan sinf. Unga ko'ra quyidagilarni ajratish mumkin:

Ota-ona va farzandlar (o'g'il-qiz, aka-uka):

Turk tilidagi ota-ona, farzandlari mavzusidagi maqollarning soni ko'pchilikni tashkil etadi. Buning boisi, maqollarning farzand tarbiyasi bilan uzviy bog'liqligidadir. Chunki tarbiya deganda ilk bor insonning xayoliga ota-ona va farzandlar tushuniladi: *Anasına bak - kızını al, kenarına (tarağına) bak -*

bezini al (Onasini ko‘r qizini ol, choki (tarog‘i)ni ko‘r - bo‘zini ol), Babali o‘g‘lanin malı olmaz (Otasi bor yigitning mulki bo‘lmas), Baba o‘g‘luna bir ba‘g‘ ba‘g‘ishlamısh, o‘g‘ul babaya bir salkım üzüüm vermemısh (Ota o‘g‘liga bir bog‘ qoldiribdi, o‘g‘il otasiga bir shingil uzum bermabdi) kabi.

Bunday maqollarda ota-onaning farzandiga beradigan tarbiyasi qanchalik muhim ekanligi, maqollarda farzandning ota-ona izidan borishi, “qushning o‘z uyasida ko‘rganini qilishiga ishora qilinadi: *Babadan gören sofra salar, anadan gören minder serer (Otasidan ko‘rgan dasturxon solar, onadan ko‘rgan – ko‘rpacha solar), Anası dal dal gezerse, kızı budak budak gezer (Onasi shoxma-shox kezsa, qizi butoqma-butoq kezar, Çakal babasından iri olmaz (Shoqol otasidan ko‘ra yirik bo‘lmaydi).*

Ota-ona va farzandlar munosabati haqida yuzlab turkcha maqollar aytilgan: *Ağlamayan çocuğa meme vermezler, Ağlarsa anam ağlar, başkası yalan ağlar, Ana kızına taht kurmuş, baht kuramamış, Buğdayım var deme ambara girmeyince, oğlum var deme yoksulluğa düşmeyince. Çingeneye beylik vermişler, ilkin (önce) babasını asmış.*

Er-xotin:

Er-xotin orasidagi munosabatlar har doim maqol va matallarning diqqat-markazida turgan. Bunda farzand tarbiyasidan tortib, ota-ona-farzand munosabatlari chambarchas bog‘lanib ketgan. Hatto yuqoridagi *Anasına bak - kızını al...* maqolini ham er-xotin mavzusidagi maqollar jumlasiga qo‘shish mumkin bo‘ladi. Masalan, *Aşını, eşini, işini bil (so‘zma-so‘z: Oshingni, (umr) yo‘ldoshingni, ishingni bil)* o‘gitida turklar erkak kishiga birinchi navbatda munosib oila qurish muhimligini ta’kidlashgan. Yoki *Avrat vardır, arpadan aş eder; avrat vardır, bulguru keş eder (Xotin bordir arpadan osh damlar, xotin bordir, bug‘doydan bo‘tqa pishirolmas)* deganda, ro‘zg‘orning saranjom bo‘lishi, erkak kishi topgan mol-mulkning barakali bo‘lishi ayol kishining qo‘lida ekanligi uqtiriladi. *Geçinmeyene dokuz koca, okunmayana dokuz hoca az gelir (Kun kechirolmaganga to‘qqiz er kam, o‘qiy olmaganga to‘qqiz domla kam)* deganda ayol kishining turmushga ko‘nikishi kerakligi, yengiltaklik qilish,

oilaning buzilishiga olib kelishi aytilgan bo'lsa, *Bal aridan, kavg karidan çıkar* (*Asal aridan, janjal xotindan*) maqolida ro'zg'orda janjal ayol tufayli chiqishi ta'kidlanadi.

Erkak kishining uylanishdan oldin obdan o'ylashi kirakligi, uylangandan keyin o'z ayoli uchun har jihatdan mas'ulligi quyidagi maqollarda o'z aksini topgan: *Ergen gözüyle kız alma, gece gözüyle bez alma* (*O'smir ko'zi bilan qiz olma, tun ko'zi bilan bo'z olma*), *Baba vergisi görümlük, koca vergisi doyumluk* (*Ota bergani ko'rishlik, er bergani to'yishlik*), *Er ekmeği - meydan ekmeği. / Baba ekmeği - zindan ekmeği, Erim er olsun da, yatar yerim çalı olsun, Kadın kocayı var sever, koca kadını sağ sever.*

Quda-andachilik, qiz uzatish, qaynona-kelin mavzusi ham maqollarda yaxshi aks etgan: *Gelin altın taht getirmiş - çıkmış kendisi oturmuş* (*Kelin oltin taxt keltiribdi, chiqib o'zi o'tirib olibdi*). *Gurbete kız verme yiter gider, denize taş atma batar gider* (*Uzoqqa qiz bermang yo'qolib ketadi, dengizga tosh otmang botib ketadi*). *Kaldın mı oğul eline, müdare eyle geline* (*Qoldingmi kelin qo'liga, murosa ayla kelin bilan*). *Gelin girmedik ev olur, ölüm girmedik ev olmaz* (*kelin kirmagan uy bo'ladi, qlim kirmagan uy bo'lmaydi*).

Ba'zi maqollarda qo'sh xotinlilik qoralangan: *İki karılı bitten, iki analı süttten ölüür* (*Ikki xotinli bitdan, ikki onali sutdan o'ladi*).

Turk tilidagi qarindosh-urug'chilik mavzu guruhiga kirgan maqollarning bir qismi aka-ukalar orasidagi munosabatlarni ifodalab keladi: *Kardeş arasına söz katan sözüyle kalır* (*Aka-uka haqida gapirgan kishi gapi bilan qoladi, ya'ni "aka-uka o'rtasida muammor yuzaga kelganda aralashmaslik kerak, bugun urushsalar, ertaga yarashib ketishadi"*). Bunday maqollarda tarkibida **kardeş** so'zi ishtirok etadi: *Kardeşin düşmanlığı, karşıdan düşman çıkıncaya kadardır* (*Aka-uka orasidagi dushmanlik ro'paradan dushman chiqqunga qadar, ya'ni "aka-uka o'zaro kelishmay qolishsa-da, o'z ishlariga boshqasining aralashishini istashmaydi"*). *Kardeş kardeşi bıçaklamış, dönmüş de yine kucaklamış* (*Aka ukasini pichoqlabdi, orqasiga o'girilib, yana quchoqlabdi, ya'ni "aka-uka orasidagi munosabat baribir buzilmaydi, ular vaqtincha kelishmay qolishsa-da,*

baribir tez yarashishadi”). Yuqoridagi misollarni bir-biriga yaqin ma’noli maqollar deb atash mumkin.

1. 1.4. Do‘stlik va qarindosh-urug‘chilik mavzusidagi maqollarning ma’no xususiyatlari

Tilning muhim qatlami va xalqning bebaho ma’naviy boyligi hisoblangan maqollarda xalqning boy tarixiy tajribasi, kishilarning mehnat faoliyati, madaniy va maishiy turmushi bilan bog‘liq tasavvurlar yaqqol aks etgan. Tilni o‘zlashtirish, nutq madaniyatini oshirishda muhim pog‘onani tashkil etuvchi maqol va iboralarning to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llanilishi nutqqa aniqlik, betakrorlik, ifodaviylik baxsh etadi.

Qarindosh-urug‘chilik mavzusida aytilgan xalq maqollarining ko‘pchiligida ota-ona va farzandlar orasidagi munosabatlarga ko‘proq urg‘u beriladi. Masalan, birgina *Ağaca dayanma - kurur, insana dayanma – ölü*r (*daraxtga suyanma quriydi, insonga suyanma - o‘ladi*) maqolida ham farzandlarning ota-onaga suyanib, bog‘lanib qolmasliklari obrazli tarzda ta’kidlanadi.

Ota-ona va farzandlar orasidagi munosabatlar ifodalangan maqollarda ota va o‘g‘li, ona va qizi orasidagi munosabatlar aks etadi: *Anasına bak - kızını al, kenarına (tarağına) bak - bezini al*.

Yuqorida keltirilgan maqollar sinchiklab kuzatilsa, ularda ta’sirni oshirish, ma’noni kuchaytirish uchun turli xil ma’no ko‘chishi hodisalaridan foydalanilganini anglash mumkin bo‘ladi. Masalan tadqiqotimiz mavzusiga tegishli maqollarning ko‘pchiligida qarama-qarshi ma’noli so‘zlar, antonimlar qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Masalan, *Her şeyin yenisi dostun eskisi* (*Hamma narsaning yangisi, do‘stning eskisi*) maqolida *yeni - eski* (*yangi-eski*) antonimi, *Akıllı düşman akılsız dosttan hayırlıdır* maqolida *akıllı – akılsız* (antonimik shakl), *düşman – dost* antonim so‘zlari qo‘llanilgan.

Ba'zi maqollarda esa hech qanday antonimik munosabati bo'lmagan so'zlar, xuddi antonim kabi ta'sirni kuchaytiruvchi, ifodani go'zallashtiruvchi unsurlar sifatida qo'llaniladi. Masalan: *Ana kizina taht kurmuş, baht kuramamış* (*Ona qiziga taxt quribdi, baxt qura olmabdi*) maqolida **taht- baht (taxt-baxt)** yoki *Anasi dal dal gezerse, kızı budak budak gezer* (*onasi shoxma-shox kezsa, qizi butoqma-butoq kezar*) maqolida **dal dal - budak budak (shoxma-shox - butoqma-butoq)** kabi. Bunday holatni Anasi ölen kız, hanım; babası ölen oğlan, bey oldum sanır (*Onasi o'lgan qiz xonim, otasi o'lgan yigit bey (og'a) bo'ldim deb o'ylaydi*), Babadan gören sofra salar, anadan gören minder serer (*Otasidan ko'rgan dasturxon soladi, onasidan ko'rgan ko'rpacha soladi*), Baba oğluna bir bağ bağışlamış, oğul babaya bir salkım üzüm vermemiş (*Ota o'g'liga bir bog' beribdi, o'g'il otaga bir shingil uzum ham bermabdi*) kabi maqollarda ham ko'rish mumkin.

Kundalik nutqda qisqa, turg'un, ohang jihatdan uyushgan, xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi aks etgan, tugallangan jumla (sodda yoki qo'shma gap) maqol bo'ladi.

Xalqning tajribasi ma'naviy qadriyatlarning yaratilishida favqulodda muhim rol o'ynaydi. "Insonlarda xotiralari tufayli tajriba paydo bo'ladi: ayni bir narsa, predmet haqidagi bir qator xotira, nihoyat, bir tajriba ahamiyatiga ega. Tajriba esa fan va san'at bilan deyarli bir xildir. Fan va san'atga esa insonlar tajriba tufayli erishadilar.

Maqol o'z sintaktik tugallangan xususiyati bilan doimiy gap bo'laklari va ko'p planli semantikaga ega bo'lgan yopiq gap hisoblanadi. Maqol qo'llanilayotganda bir paytning o'zida quyidagi semantik qatlamlar ro'yobga chiqadi:

- a) maqol matnining to'g'ri (so'zma-so'z) ma'nosi;
- b) asosiy ma'no;
- s) mazmunning aniq vaziyat bilan bog'lanishi natijasida namoyon bo'ladigan ma'no.

Maqol matnining ko‘p qatlamlilikiga muvofiq maqolni tashkil etuvchi alohida so‘zlar semantiikasi ham ko‘p qatlamli bo‘ladi. Masalan: *Eşek kurban olmaz, ama bedeli (pahası) olur* – “*Eshakni qurbonlik qilib bo‘lmaydi, ammo qiymati bo‘ladi*. Bu maqolda «eşek» (ishak) yuqoridagi uch qatlamni ham ko‘rish mumkin:

a) maqol matnining to‘g‘ri (so‘zma-so‘z) ma‘nosi; buningsiz maqol matni o‘z qimmatini yo‘qotadi; b) asosiy ma‘no (har qanday salbiy xarakter va xususiyatlarga ega bo‘lgan inson ham biror narsaga yarashi mumkin);

c) mazmunning aniq vaziyat bilan bog‘lanishi natijasida namoyon bo‘ladigan ma‘no, ya’ni maqol bir shaxsga qarata aytilgan.

Maqollarning o‘z va ko‘chma ma‘nolari bo‘lishi olimlar tomonidan allaqachon ta’kidlab bo‘lingan. Masalan, *Açın karnı doyar, gözü doymaz (Ochning qorni to‘yadi, lekin ko‘zi to‘ymaydi)* maqolida “doymak” fe’li vistupaet ham o‘z, ham ko‘chma ma‘no kasb etadi: Karın doyar – o‘z ma‘nosida, gözü doyar – ko‘chma ma‘noda. Bu yerda irikmalar tashqi tuzilishiga ko‘ra bir xil, ammo ularning mazmuni tubdan farqlidir.

Maqolni boshqa aforistik birliklardan ajratish uchun uning tub, spesifik alomatlarini tavsiflash zarur.

1. Xalqchillik. Maqolda asrlar avlodlarning asarlar bo‘yi sinalgan donoligi aks etadi. “Maqol va matallar uchun xalq ichiga borish kerakligiga xech kim shubha qilmaydi”.

“Maqollar to‘plami – xalqning tajribaviy donishmandligi majmuasi, irimlar, nolalar, yig‘i, quvonch va shodliklar, g‘am va alam, tasallidir; Maqollar – xalq zakovatining rangi, xalq haqiqati, hech kim so‘roq qila olmaydigan o‘ziga xos hakam”. Aynan xalqchillik xususiyati maqolning tub mazmuni, ya’ni undagi so‘zlarning har doim ham to‘la tushunilmaganligini ko‘rsatadi.

Xalqchillik alomati maqolni hikmatli so‘zlardan ajratib turadi. Aforizm (hikmatli so‘z) (grekcha aphorismos – naql, hikmatli so‘z) – muallifning ixcham, lo‘nda shaklda ifodalangan, aniq ifodaviy va kutilmagan xulosa

xususiyati bilan farqlanib turuvchi umumlashgan, chuqur fikridir. Aforizm maqol singari isbotlamaydi, aniq dalillar ko'rsatmaydi, original ta'rif bilan onga ta'sir etadi. Aforizm aytilayotganlardan ortiqrog'ini o'zida mujassam etadi. Aforizm maqoldan muallifning aniqligi va ma'lumligi bilan farq qiladi.¹⁵

Maqollar yuz yillar, ming yillardan buyon mavjud. Inson atrof muhitdagi hodisalarni kuzatadi, uning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni anglaydi. Inson zakovatining bunday yaratuvchilik faoliyati natijalari maqollar deb nomlangan qisqa, lo'nda jumalalarda mujassamlanadi. Maqollar alohida shaxslar tomonidan emas, o'sha tilda gaplashuvchilarning barchasi tomonidan o'zlashtiriladi (bunda maqollarning xalqchilligi yaqqol namoyon bo'ladi. "Ammo bu uning tarixidagi eng muhim narsa emas. Muhimi maqolni yuzaga keltirgan avlodlar, ularning hayot tarzi va tafakkuridir. Abadiy metaforalarda yashiringan maqollar asrlar osha yashaydi, kerak bo'lganda, xuddi urug' misoli bahor kelishi bilan unib chiqadi, chiroyli gullaydi, keyin klajak avlodlarga yoyilish qalblarga urug' sochadi, siqilgan prujina, xalq fantaziyasidagi o'limsiz qush singari qanot yozadi"¹⁶.

Kelib chiqishiga ko'ra qadimiy bo'lishiga qaramay, maqollar hech qachon bosmaqolipga aylanmaydi. Agar maqol o'z o'rnida qo'llaniladigan bo'lsa, uning qo'llanilishi har doim dolzarb bo'ladi, chunki maqol keng matnni o'zida mujassam eta oladi.

Maqollarning ma'no-mazmuni ularni tashkil etuvchi komponentlar (so'zlar) ma'nosidan bevosita "kelib chiqmaydi, u ma'no bo'lak obraz orqali bog'liq bo'ladi". Masalan: "It ulur birbirini bulur" (it uliydi, bir-birini topadi). Xalq so'zlari (maqollar) ko'chma ma'noda olingan, yoki so'zlarning o'z ma'nosi bilan ko'chma ma'nosi birikuvidan tashkil topadi. Har ikkala holatda ham ko'chma ko'chma ma'no xalq maqollarida noodatiy, o'ziga xos bo'ladi. Ulardagi ma'no kundalik kutqdagi ma'nodan farqli, faqat maqollargagina xos bo'ladi.

¹⁵ Kratkiy slovar literaturovedcheskix terminov, 1978. S.14

¹⁶ Ўзбек халқ мақол ва маталлари, Тошкент, 1985, 86-87-b)

2. Kelib chiqigining qadimiyliги va qo'llanilishining dolzarbligi. Maqollar ming yillardan buyon mavjud. Inson zakovati tashqi olamda ro'y berayotgan hodisalarni kuzatib, uning taraqqiyot qonuniyatlarini bilib oladi, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni anglaydi. Zakovatning bunday yaratuvchilik faoliyati natijalari qo'shimcha qisqa, lo'nda, zalvorli jumlar, ya'ni maqollarda aks etadi. Maqollar alohida shaxslar tomonidan emas, so'zlovchi kishilarning barchasi tomonidan o'zlashtiriladi (bekorga xalq maqoli deb nomlanmagan).

Hissiy butunlik. Maqollar nafaqat ular orasidagi fakt va bu faktlar orasidagi munosabatni, turmush qonun-qoidalarini, balki insonlarning ularga bo'lgan munosabatini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Maqollarda turli his-tuyg'ular ifodalanadi, masalan: *Yaman komşu, yaman avrat, yaman at, birinden göç, birini boşa, birini sat!* (*Yomon qo'shni, yomon xotin, yomon ot, biridan ko'ch, biri taloq qil, birini sot!*) - hukm; *Akıllı düşman akılsız dosttan hayırlıdır* (*Aqlli dushman aqlsiz do'stdan ko'ra xayrlidir*) - tasdiq.

Maqollarda kesatish ham tez-tez uchraydi, masalan: *Geçinmeyene dokuz koca, okunmayana dokuz hoca az gelir* (*kun kechirolmaganga to'qqiz er oz, o'qiy olmaganga to'qqiz domla oz bo'ladi*).

Maqollarda ifodalanayotgan hissiy-ekspressiv munosabatlar tilning kundalik-og'zaki uslubiga to'la mos keladi. Bunday xossa maqolni hikmatlardan ajratib turadi. *Ağaç sevgisi olmayanda evlat sevgisi olmaz* (*Daraxtni sevmagan farzandni sevolmaydi*) – hikmat, *Ağaç yaşken eğilir* (*'daraxt yoshligida egilur'*) – maqol. Sevimleyen gelinin selamı yanlış gelir. Para anayı kızdan, kaşı gözden ayırır (pul onani qizdan, qoshni ko'zdan ayiradi). Sevinçler (mutluluklar) paylaştıkça artar, acılar paylaştıkça azalır (Sevinchlar baham ko'rilgan sari ortadi, g'amlar baham ko'rilgan sari kamayadi) - hikmat.

Maqolda fikr qisqa va aniq ifodalanadi; sintaktik jihatdan esa maqollar gap doirasidan tashqariga chiqmaydi (sodda yoki qo'shma gap shaklida). Shu jihati bilan maqol ertaklardan farq qiladi: Yük devesi bağırған olur (*Yuk tashib borayotgan tuya baqiroq bo'ladi*).

II BOB. TURK TILIDAGI DO‘STLIK VA QARINDOSH - URUG‘CHILIK MAVZUSIDAGI MAQOLLARNING SEMATIKASI

Maqollar grammatik nuqtai nazardan muayyan sintaktik birlik hisoblangan gaplardir. Shu bois maqolning sintaktik birlik sifatida shakliy tuzilishi grammatikada o‘rganilishi lozim.

So‘nggi yillarda maqollar xususida turli xil, ba‘zan umuman bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan nuqtai nazarlar ilgari surilmoqda. Maqolning obrazlilik va tashqi tuzilishi, maqol orqali aks ettirilgan etnografik va etnogenik realiyalar uni tavsiflovchi asosiy jihatlar emas. Asosiysi, maqolning asosiy mazmuni uning mantiqiy konstruksiyasi (tuzilishi)ni belgilashidir. Maqol va iboralar vaziyat yoki narsalar orasidagi muayyan munosabatlarning belgilari hisoblanadi

Tadqiqotchilar folklorning bir janri hisoblangan maqoldagi asosiy narsa uning mantiqiy tabiati yoki unda mujassam bo‘lgan ma’lumot emas, badiiy obraz va ma’noviy ikki planlilik ekanligini ta’kidlaydilar. Mantiq qonunlariga muvofiq tarzda silliq tizilgan eng teran mulohazalar, qisqa va lo‘nda shaklda ifoda etilgan eng dono fikrlar, agar badiiy shaklga ega bo‘lmasa, hech qachon balandparvoz (ta’sirchan) bo‘la olmaydi. Zero har qanday chiroyli shakllantirilgan nutq maqol bo‘la olmaydi.

2. 1. Turk maqollaridagi milliylik va universallik (mushtaraklik)

2. 2. 2. Maqollarda milliylikning ifodalanishi

Maqollarning milliy boylik, milliylikning esa maqollarning eng asosiy xususiyati ekanligi yuqorida ko‘p marotaba qayd etildi. Milliylikni ayniqsa qarindosh-urug‘chilik munosabatlari ifodalangan maqollarda kuzatish mumkin. Chunki turkiy xalqlar bu borada juda hassos xalqlar hisoblanadi. Aniq misollarga murojaat qiladigan bo‘lsak, turk tilida juda mashhur bo‘lgan

Akrabanın akrabaya akrep etmez ettiğini (soʻzma-soʻz: *qarindoshning qarindoshga chayon qilmas qilganini*) maqoli turk tilidagi soʻz borayotgan mavzuga tegishli xalq maqollaridan eng eʼtiborga loyiqʻidir. Ushbu maqol har jihatdan tadqiqotchining diqqatini tortishi mumkin. Masalan, maqolning nazmiyligi unda soʻzlarning joylashuvida koʻrinadi. Turk tilining sintaktik qoidalariga muvofiq maqolda gap boʻlaklari quyidagi tartibda joylashuvi kerak edi: *Akrabanın akrabaya ettiğini akrep (bile) etmez* (soʻzma-soʻz: *qarindoshning qarindoshga qilganini (hatto) chayon ham qilmaydi*). Demak maqol tarkibida soʻzlarning joylashish tartibi, inversiya hodisasi ohang va qofiyadan tashqari, taʼsirni ham kuchaytiradi.

Turk tilidagi qarindosh-urugʻchilik mavzusida aytilgan xalq maqollarining grammatik xususiyatlaridan yana biri gaplarning koʻpincha bogʻlovchisiz qoʻshma gaplar shaklida boʻlishi, ularni tashkil etuvchi sodda gaplar orasida esa maʼno munosabatlarining yaqqol anglashib turishidir. Masalan: *Ağlarsa anam ağlar, başkası yalan ağlar* (*Yigʻlasa onam yigʻlar, boshqasi yolgʻon yigʻlar*) yoki *Akraba ile ye, iç, yad el ile konuş* (*Qarindosh bilan yeb-ich, begona bilan gaplash*)¹⁷

Turk tilidagi qarindosh-urugʻchilik mavzusida aytilgan maqollar sirasiga “bola” (çocuk) soʻzi ishtirok etishi mumkin: *Doğmayan çocuğa don biçilmez* (*tugʻilmagan bolaga toʻn bichilmas*) maqoli gap oldiga qoʻyilgan (sintaktik) talablarga toʻla javob beradi va muloqot jarayonida mustaqil, kommunikativ birlik sifatida namoyon boʻladi. Muallif hikoyasida esa ular nutqqa «dedi», «aytdi» feʼllari vositasida matnga kiritiladi.

Baʼzi oʻgitlar turk tilida maqollar deyilsa-da, oʻzbek tilidagi matallarga toʻgʻri keladi. Turk tilshunosligida matallar uchun alohida atama qoʻllanilmaydi. Maqollar oʻgit berish, insonga haqiqatni koʻrsatib, uni yoʻlga solishga xizmat qiladi. Maqollarda yuqorida sanab oʻtilgan oʻziga xosliklardan

¹⁷ Бу мақолдаги “бегона билан гаплаш”содда гапи “бегона билан “олди-берди” қилмоқ” маъносида келган. Мақолда ўзаро яқин қариндошлар орасидаги “олди-берди” муносабатлари ёмон оқибатларга олиб келиши мумкинлиги кўзда тутилади.

tashqari muayyan qonuniyat bilan belgilash qiyin bo'lgan bir ifoda, ohang o'ziga xosligi mavjudki, bundan mahrum bo'lgan har qanday o'git qoidaga qanchalar muvofiq kelmasin, maqol bo'la olmaydi. Masalan, "og'a" (ağa) so'zi ishtirok etgan *Sen ağa ben ağa bu ineği kim sağa?* ('*Sen og'a, men og'a, bu sigirni kim sog'adi?*') matali maqolga juda yaqin va maqol kabi xalqning hayot tarzi, falsafasi va dunyoqarashi, milliy o'ziga xosliklarni ifodalovchi til qatlami hisoblash mumkin.

Maqollar to'la shakllangan, tugal ma'no ifodalovchi gaplardir: *Ağaca dayanma - kurur, insana dayanma – ölü*r (Daraxtga suyanma quriydi, insonga suyanma - o'ladi). Shaxsi ma'lum (qo'shma) gap shaklidagi ushbu maqol gap qo'yiladigan barcha sintaktik talablarga javob bera oladi: gapning egasi – **Sen** va **O**, kesimlari – *dayanma, kurur* va *ölür*, qolganlari – ikkinchi darajali bo'laklar. Bu maqolning grammatik va sintaktik shakli o'zgartirilsa, u ohang, ta'sir ko'rsatish xususiyatlaridan mahrum bo'ladi.

2. 2. 3. Maqollarda umumiylik (universallik)

Ikki yoki bir necha til orasidagi o'xshashlik va tafovut qiyosiy tadqiqot natijasida aniqlanadi. Qiyosiy metodning mohiyati o'xshash vazifalarni bajaruvchi qator tillardagi hodisa va faktlarining izlab topilishi va aniqlanishidadir. Bunda qiyoslanayotgan tillarning genetik jihatdan yaqinligining ahamiyati yo'q. Masalan, turk va o'zbek tillari ayti til oilasidan sanaladi, lekin rus tili umuman boshqa til oilasidan, milliy jihatdan ham ular qator o'ziga xosliklarga ega. Shunga qaramay ko'pchilik maqollar bu uch tilda o'zaro mushtarakdir: *Dost başa düşman ayağa bakar - Do'st boshga, dushman oyoqqa qaraydi - Drug smotrit v liso, vrag – na nogi; Dost acı söyler - Do'st achitib gapirar - Drug govorit gorkuyu pravdu* kabi.

Maqollarda universalisa (lat. Universalis – umumiy) deganda barcha tillardagi yoki ko'pchilik tillardagi maqollarning umumiy xususiyatlari tushuniladi. Maqollar barcha hind-evropa, turkiy, ugrofin, semito-xamit hamda

afrika va polineziya tillarida mavjud. Undan tashqari, turli oilalarga mansub tillarda semantik bir turdan bo'lgan miqdoriy guruhni ajratish mumkin.

Turli tillarda so'zlashuvchilarning bir-birlarini tushunishlari fakti birinchi navbatda yagona mantiqiy-tafakkur bazasining mavjudligi bilan izohlanadi. Tillarning universal o'xshashligi ularni qiyoslash va tasniflash uchun mantiqiy asos bo'lib xizmat qiladi hamda dunyo tillarini tasvirlash chog'ida yuzaga keluvchi mashaqqatlarga barham berish vositasi hisoblanadi.

Mazkur nazariy qoida maqollarning qiyosiy tadqiqiga nisbatan ham amal qiladi. Unda til universalialarining hisobga olinishi rus, o'zbek va turk tillaridagi maqollarni aniqlashga ko'mak beradi.

Har bir xalq maqollarda o'z tajribasini ixcham shaklda aks ettiradi, ammo ko'pincha bu tajriba boshqa xalqlarning tajribalari bilan mos keladi. Shundandir, ko'pincha, turli tillardagi maqollar bir-biridan aynan nusxa ko'chirilganga o'xshab ko'rinadi.

Turli tizimdagi tillardagi maqollar universal xossalarga, hatto yagona mantiqiy-semantik tuzilishga egadir. Bu maqollar dunyosining qandaydir bir madaniyatga tegishli emasligi, ko'pchiligiga xos ekanligi bilan bog'liq. Bu demak, maqolning ta'rifi madaniyatlararo xarakterga ega bo'lishi va qayd etilgan barcha madaniyatlarning shartlarini bajarishlari lozim.

Masalan, Ingliz maqoli hisoblangan *Ilon chaqqan odam arqondan qo'rqadi* o'z ma'nosiga ko'ra fransuzcha *Kuygan mushuk sovuk suvdan ko'rkadi*, yunoncha *Qovoq bo'tqasidan og'zi kuygan sovuq qatiqni puflaydi* maqoliga mos keladi. Ruscha *Objegshis na moloke, duyut na vodu* (*Sutdan og'zi kuygan, suvni puflaydi*), tojik makollaridan *Dar shir so'xty, do'g'ro pufkarda xo'r* ("*Sutdan og'zi kuygan, qatiqni puflab ichadi*"), *Morgazida az resmoni alo metarsad* (*Ilon chakkan ola arkondan qo'rqar*) maqolini ham qo'shish mumkin. Mavzumizdan uzoqlashmasdan turk tilidagi ayni ma'nodagi maqolni keltiramiz: *Sütten ağzı yanan yağurdu üfleyerek yer* (*Sutdan og'zi kuygan, qatiqni puflab yeydi*) maqolining o'zbekcha muqobili turkcha bilan

deyarli bir xil: “*Sutdan og‘zi kuygan, qatiqni puflab ichadi*” yoki “*Ilon chakkan ola arkondan qo‘rqar*”. Keltirilgan barcha maqollar bitta belgi vaziyatini bildiradi: “bir narsaga ehtiyotsiz munosabatda bo‘lgani bois aziyat chekkan kishi kelajakda ana shunga o‘xshash vaziyatlarda o‘ta ehtiyotkor bo‘ladi”. Turk o‘zbek va rus tillarida universal (mushtarak) hisoblangan maqollardan ba’zilari N. P. Sidorinaning “Turkcha-ruscha maqol va matallar lug‘ati” (“Турецко-русский словарь пословиц и поговорок”)¹⁸ kitobidan olinib, quyida berildi:

<i>Turkcha maqol</i>	<i>O‘zbekcha muqobili</i>	<i>Ruscha muqobili</i>
Adam ahbabından bellidir	Do‘sting kim ayt, sening kimligingni aytaman	Skaji, kto tvoy drug, i ya skaju, kto ti
Iyi dost kara günde belli olur	Yaxshi do‘st boshga ish tushganda bilinadi	Xoroshiy drug poznayotsya v cherniy den
Sadik dost akabadan yeğdir	Yaxshi do‘st qarindoshdan yaxshidir	Verniy drug luchshe rodicha
Dost ağlatır düşman güldürür	Do‘st achitib gapiradi, dushman kuldirib	Drug zastavlyaet plakat, vrag – smeyatsya
Düşman karınca ise , sen fil farzet	Dushmaning chumoli bo‘lsa ham, sen fil faraz qil	Esli daje tvoy vrag muravey, ti schitay yego slonom
Bana dokunmayan yılan bin yıl yaşasın	Menga tegmagan ilon ming yil yashasin	Zmeya, kotoraya ne trogaet, pust jivet xot tisyachu let
Düşmana sahip çıkan düşman sayılır	Dushmanning yonini olgan dushmandir	Tot, kto zastupaetsya za vraga, toje schitaetsya vragom
Kişiy e bin dosttan bir düşman çoktur	Mingta do‘st oz, bitta dushman ko‘pdir	Odin vrag xuje tisyachi druzey

2.2. 4. Maqollar mazmunini ifodalashda grammatik omillar ta’siri

Grammatik jihatdan tugallanganlik har doim maqollar uchun hal qiluvchi, ularni boshqa idiomatik birliklardan ajratib tasniflash uchun o‘ta muhim xususiyat hisoblanadi. Maqollarning tub mohiyati haqida olimlar turlicha fikr bildirsalarda, aynan maqollarning grammatik jihatdan tugallangan jumlar shaklida bo‘lishi xususida yagona fikrga ega ekanliklarini ta’kidlaydilar. Bunda

¹⁸ Сидорина Н. П. “Турецко-русский словарь пословиц и поговорок”, Москва, Толмач, 2006

olimlar maqollarning boshqa idiomatik, aforistik birliklarga yaqin turishini, ular orasidagi chegaraning mustahkam emasligini ta'kidlaydilar.

Hozirgi zamon tilshunosligida "til" va "nutq" tushunchalari alohida ajratiladi. "Til" deganda butun jamiyat, xalq uchun majburiy belgilar tizimi, leksemalar, ularni birikish, o'zgarish qoidalarini tushunilsa, "nutq" deganda, aksincha, muayyan xabarni bir kishidan ikkinchisiga yetkazishga xizmat qiluvchi faoliyat tushuniladi. Nutq baland yoki past, aniq yoki g'aliz bo'lishi mumkin, til esa yagona, hamma uchun umumiy. Nutqda har bir so'zlovchi yoki yozuvchining xususiyatlari namoyon bo'ladi; tilda esa barcha xususiy nutqlarni birlashtiruvchi umumiylik mujassam bo'ladi. Nutq yagona umumiy til negizida mavjud bo'lishi mumkin; til, o'z navbatida, faqat shaxsiy yoki guruh holatidagi nutqda mavjud bo'ladi.

Nutqda mavjud bo'lgan, ammo tilga butunlay tegishli bo'lgan va shu bois unda so'zlovchi barcha insonlar uchun tushunarli bo'lgan birliklar maqollardir. Maqollar quyidagi grammatik tugallik ko'rinishlariga ega bo'ladi:

a) alohida so'z birikmalari ko'rinishida: *Babali o'g'lanin malı olmaz – Otasi bor o'g'ilning mol-davlati bo'lmas. Adam ahabından bellidir (Do'sting kim ayt, sening kimligingni aytaman)* kabi;

b) mustaqil sodda va qo'shma gar ko'rinishida: *Akıllı düşman akılsız dosttan hayırlıdır (Aqlli dushman aqlsiz do'stdan ko'ra xayrlidir), Anasına bak - kızını al, kenarına (tarağına) bak - bezini al (Onasini ko'r qizini ol, tarog'ini ko'r bo'zini ol), Anası dal dal gezerse, kızı budak budak gezer (Onasi shoxdan shoxga sakrab yursa, qizi butoq-butoq sakrab yuradi).*

To'liqsiz gap shaklida: *Tarlayı taşlı yerden, kızı kardeşli yerden (Dalani toshli joydan, qizni qardoshli joydan).* Bu gapda kesim tushib qolgan va uning bo'lishli yoki bo'lishsiz bo'lishini kishi o'zi topib olishi lozim,

Darak gap shaklida: *Kızını dövmeven dızini döver (Qizini mushtlamagan tizzasini mushtlar);*

Tasdiq gap shaklida: *Yitiren annesinin koynunu arar (Yo`q otgan onasining qo`ynini qidiradi);*

Inkor gap shaklida: *Çocuklu avrat, sıpalı eşek ile yola gidilmez (Bolali xotin, yonida xo'tigi bor eshak bilan uzoq yo'lga chiqib bo'lmas). Aç aman bilmez çocuk zaman bilmez – Och rahm nima bilmas, bola paytini bilmas;*

Fe'l jumlası: *Çocuğa iş buyuran ardınca kendi gider (Bolaga ish buyurgan kishi orqasidan o'zi yuguradi);*

Ot kesimli gap shaklida: *Baba vergisi görümlük, koca vergisi doyumluk (Ota bergani ko'rishga, er bergani to'yishga). Er ekmeği - meydan ekmeği, baba ekmeği - zindan ekmeği (Er bergan non – maydon noni, ota bergan non – zindon noni).*

c) Kichik hikoya yoki sahna shaklida:

Eşeğe: “Sıpan oldu” demişler, “Sırtımda yükümü alacak değil ya, önümden yemimi alacak” demiş – *Eshakka “Bolali bo'ldig” deyishibdi, eshak: «Ustimdan yukimni olmaydiku, oldimdagi yemni yeydi” deb javob beribdi.*

Maqollar orasidagi yaqinlik munosabatlariga sinonimlik va variantlilik kiradi. O'zaro sinonim bo'lgan maqollar orasidagi farq predmet (obraz) bilan bog'liq bo'ladi): *Yük devesi bağırған olur (Yuk tashib borayotgan tuya baqiroq bo'ladi) - Yüki çeken deve bozular – Yuk ko'targan tuya bo'zlovchi bo'ladi.* Bunday maqollarda leksik variant almashinadi: *Askerin parası pul, karısı dul (Askarning boyligi (qora) pul, xotini tul bo'ladi. Denizcinin parası pul, karısı dul (Dengizchining boyligi (qora) pul, xotini tul bo'ladi. Akrabayla ye iç, yad el ile konuş (Yaqin qarindosh bilan yeb-ich, begonalar bilan gaplash) - Dost ile ye iç, alışveriş yapma” (Do'st bilan yeb-ich, oldi-berdi qilma).*

Yaqinlik munosabati sintaktik variantlilikda namoyon bo'ladi: *Sen ağa, ben ağa, bu ineği kim sağar? (Sen og'a, men og'a, bu sigirni kim sog'a (di)? - Sen zot ben zot, ata kim verecek ot? (Sen zot, men zot, otga kim beradi o't?)*

Munosabat sintaktik jihatdan tenglik bo'lmasdan predmet yaqinligi natijasida ham yuzaga kelishi mumkin: *Kadın erkek için şeytan gibidir (Ayol erkak uchun shayton kabidir) - Erkeğin şeytanı kadın (Erkakning shaytoni ayoldir).* Sintaktik jihatdan tenglik bo'lganda ko'pincha leksik almashinuv

kuzatiladi: *Ana baba taht yaptırır, baht yaptıramaz (Ota-ona taxt qurdiradi, baxt qurdira olmaydi) - Ana kızına taht kurmuş, baht kuramamış (Ona qiziga taht yasabdi, baxt yasay olmabdi).*

Turk tilidagi do'stlik va qarindosh urug'chilik mavzusida aytilgan xalq maqollarining grammatik xususiyatlari xususida so'z borganda maqollarning sintaktik xususiyatlari, ayniqsa, ularning bog'lovchisiz, bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar shaklida bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Zidlov, ayiruv va boshqa turli bog'lovchisiz birikuv munosabatida birikkan qo'shma gaplar shaklidagi maqollar ko'pchilikni tashkil etadi:

At ver dost ol, kız ver düşman ol (Ot ber do'st bo'l, qiz ber dushman bo'!)
– ham ketma ketlik, ham zidlov munosabati;

Dost ile ye iç, alışveriş yapma (Do'st bilan yeb-ich, lekin oldi-berdi qilma!) va uning sinonimi bo'lgan *Akrabayla ye iç, yad el ile konuş* (Yaqin qarindosh bilan yeb-ich, begonalar bilan gaplash) – zidlov munosabati;

Açma sırrını dostuna, o da söyler dostuna (Ochma siringni do'stinga, u ham ochar do'stiga) – ketme-ket birikuv;

Ushbu guruhga *Ağanın arabası yokuşa gider, fakirinki inişe gitmez* (Og'aning aravasi tepalikka chiqadi, faqirniki esa quyiga qarab keta olmaydi), *Ağızdan burun yakın, kardeşten karın yakın* (Og'izdan burun yaqin, qardoshdan qorin yaqin), *Ağlarsa anam ağlar, başkası yalan ağlar* (Yig'lasa onam yig'lar, boshqasi yolg'ondan yig'laydi), *Alçak eşek binmeye kolay, öksüz çocuk dövmeye kolay* (Pakana eshak minishga oson, yetim bola urishga oson), *Anasına bak - kızını al, kenarına (tarağına) bak - bezini al* (Onasini ko'r – qizini ol, choki (tarog'i)ni ko'r-bo'zini ol), *Ana kızına taht kurmuş, baht kuramamış* (Ona qiziga taxt quribdi, lekin baxt qura olmabdi) kabi o'nlab maqollarni kiritish mumkin.

XULOSA

Turk tilida ogʻzaki va yozma nutqda, badiiy asarlarda muhim oʻrin tutgan maqollar alohida ilmiy yondashuvni talab etadi. Turk xalqi maʼnaviy tafakkurining mahsuli boʻlgan maqollarni ilmiy oʻrganish natijasida ularning oʻziga xos ohangdorligi va teran maʼno kasb etuvchi tugallangan birliklar ekanligiga guvoh boʻlindi.

Vaqt oʻtishi bilan oʻxshash shakllari, sinonimlari, taqlidlari paydo boʻlgan va keng yoyilgan maqollar insonning tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarni bir tushuncha doirasida ilgʻash, ularga poetik tus berish natijasida shakllangan. Maqollar turkiy xalqlar hayotida din hukmlari, huquqiy va axloqiy tamoyillar bilan bir qatordan joy olgan. Baʼzi maqollar zahirida yotgan falsafiy fikrni faqat izoh yoʻli bilan tushuntirish mumkin.

Maqollar «yuz yillardan beri qoliplashib, asosan, ogʻzaki ijodda hayotiy tajriba mahsuli sifatida shakllanib, avloddan-avlodga koʻchib kelgan anonim xarakterdagi hukmlar, hikmatli soʻzlar, oʻgitlar, chiqarilgan hayotiy xulosalardir.»¹⁹ Maqollarda bir tugallangan fikr, oʻzgartirib boʻlmas dalil, haqiqatni taʼkidlanadi.

Maqol xalqning hayot tarzi, falsafasi va dunyoqarashi bilan bogʻliq maʼnolarni ifodalovchi va milliy, umuminsoniy xususiyatlarni oʻzida mujassamlantirgan til qatlamidir.

Maqollar turk xalqining ming yillik turmush tajribalarida sinalgan hayotiy xulosalari, donoligi, maʼnaviy boyligi, madaniy merosi durdonalaridir. Maqollar olami turli soha mutaxassislari hisoblangan olimlar – paremiologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, folkloristlar, etnograflarning tadqiqotlar olib borishlari uchun muhim manbadir.

Maqol shaklan ixcham, sodda boʻlishiga qaramay, turli tadqiqot nuqtai nazarlaridan koʻrib chiqilishi mumkin. Maqollar semantik va struktur jihatdan

¹⁹ Gür Alim “Ebüzziya” Tevfik. Hayat, Dil, Edebiyat, Basın, Yayın ve Matbaacılığa Katkılar”, T.C. Kültür Bakanlığı Kültür Eserleri, Türk Tarih Kurumu Basımevi – Ankara, 1998, s.72

to'la tugallangan matn sifatida tilshunoslikning til haqidagi ancha navqiron sohasi bo'lgan matn lingvistikasining ham diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Bir til, hatto o'zaro yaqin, hatto umuman bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi turli maqollar yagona mantiqiy turga tegishli bo'lishi va bir xil alomatni ko'rsatishi mumkin. Shu bois ular mantiqiy semantika va semiotikaga bevosita tegishli bo'ladi.

Kundalik turmushning ajralmas bir bo'lagiga aylanib qolgan xalq maqollarida dunyoning hikmati, donishmandligi mujassam. Turk maqollari va matallarini bilish tilni boyitadi, turk tilining obrazli (badiiy) qurilishini o'zlashtirishga yordam beradi, xotirani mustahkamlaydi, xalq donishmandligiga oshno qiladi. Qisqa, obrazli, tugallangan ma'no ifodalovchi lo'nda gaplarni, odatda, eslab qolish ham oson bo'ladi.

Turk tilshunosligining maqollarni o'rganuvchi sohasi bo'yicha dastlabki ishlar Turkiyada XIX asrning oxirlarida paydo bo'lgan. Ya'ni turkcha maqol va matallar dastlab o'sha davrda to'plana boshlagan. Lekin, ularning ilmiy tadqiqi, asosan, XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Bu davrga kelib tildagi frazeologik qatlamning ilmiy konsepsiyasi shakllana boshlagan. Ungacha amalga oshirilgan ayrim ishlar frazeologiyaga oid ba'zi masalalarnigina qamray olgan.

Turkcha maqollarning lingvistik mohiyatini aniqlash, ularning boshqa aforistik birikmalar tizimi va tilning umumiy tizimida tutgan o'rnini belgilash, ularning yuzaga kelishi va nutqda qo'llanilish qonuniyatlarini o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Xalqning mentalitetini o'zida aks ettirgan, madaniyatning ajralmas qismi va tilning muhim qatlamini tashkil etuvchi, bebaho ma'naviy boylik sanalgan maqollar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan avlodlardan avlodlarga meros qilib qoldirilgan. Zero, turk xalqining ilmiy va madaniy an'analarida qadim zamonlardan boshlab xalqning yuksak til madaniyatini namoyon etuvchi oltin sahifalar mavjud. Bunga ishonch hosil qilish uchun Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu Lug'atit turk» asarini eslashning o'zi ham kifoya. Ushbu asar dunyoga kelgandan keyin turkcha maqollar arabcha

mesel (ko'plik shakli *emsal*) "ertak, matal, misol, o'xshatish", *sav*, *tabir* "so'z, ta'bir" so'zlari bilan atala boshlangan.

Mazkur BMIda turk xalq maqollari turli nuqtai nazarlardan tadqiq etishga harakat qilindi. Maqollar haqida turk va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan ilmiy materiallar topilib, o'rganib chiqildi, ularning milliyligi, mavzulari, sintaktik, morfologik, qofiya, ifodaviylik xususiyatlarini tahlil etildi, maqollarda yashiringan ichki mazmun, qissadan hissa qanday aniqlanishi, ulardagi sinonimlik, antonimlik va omonimlik hodisalari ko'rsatildi.

Tadqiqotda asosiy e'tibor maqollarning semantikasi, mavzusi va sintaktik xususiyatlariga qaratildi. Kelingan xulosalar va ilmiy ta'riflar aniq misollar vositasida dalillandi. Tadqiqotning manbalari. Maqollar to'plamlari va turli lug'atlar, jumladan, turk va o'zbek tillarining izohli lug'atlari, ikkitilli lug'atlar, shuningdek, badiiy asarlar tadqiqotning manbalari hisoblanadi. Ishda taniqli tilshunos olimlarining turli kitoblari, monografiyalarda berilgan maqol va matallar haqidagi ilmiy xulosalaridan foydalanildi.

Ushbu BMIda turk maqollari, xususan, do'stlik va qarindosh-urug'chilik mavzusidagi turkcha maqollarning nutqdagi o'rni ta'kidlandi. BMI o'ziga yarasha nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida ilovada keltirilgan maqollar hajmini kengaytirib, mavzu bilan bog'liq turkcha maqollarning turkcha o'zbekcha lug'atini tuzish, darslarda qo'llash mumkin. Keltirilgan nazariy fikrlar, xulosalar turk tili leksikologiyasi, turk adabiyoti va folklor darslarida maqollar bilan bog'liq mavzuni o'tishda material bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch." Toshkent, "Ma'naviyat", 2008

O'zbek tilidagi adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbek xalq maqol va matallari, Toshkent, 1985
2. Abdurahmonov G'. Hozirgi zamon o'zbek tilining adabiy usullari haqida//O'zbek tili va adabiyoti.1992
3. Aristotel, Metafizika, Toshkent, 1999
4. Yo'ldoshev I va Tunjay O'zturk, O'zbek va turk maqollari, iboralari. T., 1998
5. O'zbek tilining izohli lug'ati, 1-2- jildlar, M., «Russkiy yazik», 1981; Türkçe Sözlük, TDK, 9. Baskı, 1.-2. Ciltler, Ankara, 1998

Rus tilidagi adabiyotlar ro'yxati

1. Büyük Rusça-Türkçe Sözlük, Moskva, «Russkiy yazik», Multilingual, İstanbul, 1995
2. Büyük Türkçe-Rusça Sözlük, Moskva, 1977; İstanbul, 1995;
3. Kratkiy slovar literaturovedcheskix terminov, Moskva, 1978
4. Sidorina N. P. "Turesko-russkiy slovar poslovis i pogovorok", Moskva, Tolmach, 2006

Türk tilidagi adabiyotlar ro'yxati

1. Aksoy, Ö. A., Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, 1. Atasözleri Sözlüğü, İstanbul, İnkilap Kitabevi, 1971, 1974
2. Aksoy, Ö. A., Bölge Ağzlarında Atasözleri ve Deyimler, 1. 2. Cilt, Ankara Üniversitesi Basımevi, Ankara, 1996
3. Albayrak, N., Ansiklopedik Halk Edebiyatı Terimleri Sözlüğü, LM Yayınları, İstanbul, 2004
4. Gür Alim, Ebüzziya Tevfik. Hayat, Dil, Edebiyat, Basın, Yayın ve Matbaacılığa Katkıları, T.C. Kültür Bakanlığı Kültür Eserleri, Türk Tarih Kurumu Basımevi – Ankara, 1998
5. Kartal N., Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, İnkilap Yayınevi, İstanbul, 1999
6. Türk Dünyası El Kitabı, Üçüncü Cilt, Ankara, 1992
7. Yund, Kerim, Atasözlerinde Kişi Adları, Türk Yurdu, Cilt: 6, Sayı: 334, Ankara, 1967

INTERNET RESURSLARI

<http://www.Google.com.tr>

<http://wikipediya.com>

<http://ziyo.uz>

<http://school.com>

[http://referat. Ru](http://referat.Ru)

ILOVA

Türk tildagi do'stlik hamda qarindosh-urug'chilik mavzusidagi maqol, matal va aforizmlar

(Dostluk ve Akrabalıkla İlgili Türkçe Atasözleri, Özlü Sözler, Hikmetler, Vecizeler ve Darbimeseller)

Aç aman bilmez çocuk zaman bilmez (Och rahm nima bilmas, bola paytini bilmas)

Açma sırrını dostuna, o da söyler dostuna (Ochma siringni do'stingga, u ham ochar do'stiga)

Adam ahababından bellidir (Do'sting kim ayt, sening kimligingni aytaman)

Ağaca balta vurmuşlar: "Sapı bedenimden"- demiş (Daraxtgа bolta uribdilar, Daraxt: "Sopi tanamdan-da" - debdi).

Ağaca dayanma - kurur, insana dayanma – ölür (Daraxtgа suyanma quriydi, insonga suyanma - o'ladi).

Ağaç sevgisi olmayanda evlat sevgisi olmaz (Daraxt sevmagan farzandini sevmaydi).

Ağaç yaşken eğilir (Daraxt niholligida egilur)

Ağama ağlamıyorum, ağa günlerime ağlıyorum (Оғамга йиғлаётганим йўқ, оға кунларимга йиғлаяпман).

Ağanın arabası yokuşa gider, fakirinki inişe gitmez (Og'aning aravasi tepalikka chiqadi, faqirniki esa quyiga qarab keta olmaydi)

Ağızdan burun yakın, kardeşten karın yakın (Og'izdan burun yaqin, qardoshdan qorin yaqin)

Ağlamayan çocuğa meme vermezler (Йиғламаган болага кўкрак бермайдилар).

Ağlarsa anam ağlar, başkası yalan ağlar (Yig'lasa onam yig'lar, boshqasi yolg'ondan yig'lar)

Akıllı düşman akılsız dosttan hayırlıdır (Aqlli dushman aqlsiz do'stdan ko'ra xayrlidir)

Akrabayla ye iç, yad el ile konuş (Yaqin qarindosh bilan yeb-ich, begonalar bilan gaplash)

Akrabanın akrabaya akrep etmez ettiğini (so'zma-so'z: qarindoshning qarindoshga chayon qilmas qilganini)

Alçak eşek binmeye kolay, öksüz çocuk dövmeye kolay (Pakana eshak minishga oson, yetim bola urishga oson)

Allah bilir kul da sezer (Olloh bilguvchi, ammo inson ham sezuvchidir)

Allah deldiği boğazı aç bırakmaz (Olloh o'zi teshgan tomoqni och qoldirmaydi, ya'ni Olloh har kishining rizqini beradi)

Ana baba taht yaptırır, baht yaptıramaz (Ota-ona taxt qurdiradi, baxt qurdira olmaydi)

Ana kızına taht kurmuş, baht kuramamış (Ona qiziga taxt quribdi, baxt qura olmabdi)

Ananın dediği dağa taş, gelinin dediği gelir başa (Онанинг дегани (қарғиши) тоғу-тошга, келиннинг қарғиши келур бошга).

Anası dal dal gezerse, kızı budak budak gezer (Onasi shoxdan shoxga sakrab yursa, qizi butoq-butoq sakrab yuradi).

Anasına bak - kızını al, kenarına (tarağına) bak - bezini al (Onasini ko‘r qizini ol, tarog‘ini ko‘r bo‘zini ol)

Anası ölen kız, hanım; babası ölen oğlan, bey oldum sanır (Onasi o‘lgan qiz xonim, otasi o‘lgan yigit bey (og‘a) bo‘ldim deb o‘ylaydi)

Askerin parası pul, karısı dul (Askarning boyligi (qora) pul, xotini tul bo‘ladi)

Aşını, eşini, işini bil (Ошингни, (умр) йўлдошингни, ишингни яхши бил).

At ver dost ol, kız ver düşman ol (Ot ber do‘st bo‘l, qiz ber dushman bo‘l!)

Babadan gören sofralar, anadan gören minder serer (Otasidan ko‘rgan dasturxon soladi, onasidan ko‘rgan ko‘rpacha soladi)

Babalı oğlanın malı olmaz (Otasi bor o‘g‘ilning mol-davlati bo‘lmas).

Baba oğluna bir bağ bağışlamış, oğul babaya bir salkım üzüm vermemiş (Ota o‘g‘liga bir bog‘ beribdi, o‘g‘il otaga bir shingil uzum ham bermabdi)

Baba vergisi görümlük, koca vergisi doyumluk (Ota bergani ko‘rishga, er bergani to‘yishga)

Bal arıdan, kavga karıdan çıkar. (Asal arıdan, janjal xotindan chiqar)

Bekara karı boşamak kolay.(Bo‘ydoqqa xotin qo‘yish oson)

Ben dilerim bacımdan, bacım ölür acından.(Men so‘rayman singlimdan,singlim o‘lar rahimdan)

Buğdayım var deme ambara girmeyince, oğlum var deme yoksulluğa düşmeyince.

Boğazı büyüğün dostu olmaz (so‘zma-so‘z: tomog‘i katta odamning do‘sti bo‘lmas, ya‘ni “insonning nafsı yomon bo‘lmasligi, kishi topgan narsasini atrofdagılar bilan baham ko‘rishi kerak, faqat o‘zi, o‘z nafsini o‘ylagan kishi do‘st orttira olmaydi”)

Çakal babasından iri olmaz.(Shoqol otasidan katta bo‘lmas)

Çingeneye beylik vermişler, ilkin (önce) babasını asmış.(Lo‘liga beklik berishibdi,avval o‘z otasini osibtı)

Çocuğa iş buyuran ardınca kendi gider (Bolaga ish buyurgan kishi orqasidan o‘zi yuguradi)(Bolaga ish buyur,ketidan o‘zing yugur)

Çocuklu avrat, sıpalı eşek ile yola gidilmez (Bolali xotin, yonida xo‘tigi bor eshak bilan uzoq yo‘lga chiqib bo‘lmas)

Çocuğu babanın akçasıyla ananın bohçası okutur.(Bolani otaning oqchasi bilan onaning bo‘xchasi o‘qitadi)

Çocuğun yediği – helal, giydiği – haram.(Bolaning yegani halol,kiygani – harom)

Darıldığın dağın odununu yakma, boşadığın karının topuğuna bakma.(Xafa bo'lgan tog'ingning o'tinin yoqma,qo'ygan xotiningni to'pig'iga boqma)

Denizcinin parası pul, karısı dul (Dengizchining boyligi (qora) pul, xotini tul bo'ladi)

Denize düşen yosuna sarılır (Dengizga tushgan xasga yopishar)

Denize düşen yosundan imdat umar (Dengizga tushgan xasdan yordam kutadi)

Dertler paylaştıkça azalır (Sevinçler paylaşınca çoğalır).Dardlar baham ko'rilsa kamayadi.(Quvonchlar baham ko'rilsa ko'payadi)

Doğmayan çocuğa don biçilmez (tug'ilmagan bolaga to'n ichi kiyim bichilmas)

Dosta çok varan ekşi yüz görür (Do'stiga ko'p borgan burishgan yuz ko'radi)

Dost ile ye iç, alışveriş yapma (Do'st bilan yeb-ich, lekin oldi-berdi qilma!)

Düşmanın karınca ise de hor bakma.(Dushmaning chumoli bo'lsa ham pastnazar bilan qarama)

Ekmeğini yalnız yiyen arabasını kendi çeker.(Nonini yolg'iz yegani aravasini o'zi tortar)

Er ekmeği - meydan ekmeği, baba ekmeği - zindan ekmeği (Er bergan non – maydon noni, ota bergan non – zindon noni).

Ergen gözüyle kız alma, gece gözüyle bez alma.

Erim er olsun da, yatar yerim çalı olsun.(Erim er bo'lsa bo'lgani,yotar joyim qattiq bo'lsin)

Erkeğin kalbine giden yol midesinden geçer.(Erning qalbiga boruvchi yo'l oshqozoni orqali o'tadi)

Erkeğin şeytanı kadın (Erkakning shaytoni ayoldir)

Erkek karısını gömermiş, dönerken de bıyığını burarmış.(Er xotinini ko'mibti,qaytayotganida esa mo'ylovini burar ekan)

Ersiz avrat, yularsız at.(Ersiz xotin, jilovsiz ot)

Eşeğe: “Sıpan oldu” demişler, “Sırtımda yükümü alacak değil ya, önümden yemimi alacak” demiş – Eshakka “Bolali bo'ldig” deyishibdi, eshak: «Ustimdan yukimni olmaydiku, oldimdagi yemni yeydi” deb javob beribdi.

Et tırnaktan çocuk anadan ayrılamaz.(Et tirnoqdan,bola onadan ajrala olmaydi)

Faydasız kardeşten yeğen, çakmaksız tüfekten söven (yeğdir).(befoyda ukadan jiyan,chaqmoqsiz miltiqdan tayoq yaxshi)

Her şeyin yenisi dostun eskisi (Hamma narsaning yangisi, do'stning eskisi)

Geçinmeyene dokuz koca, okunmayana dokuz hoca az gelir.(Beburd xotinga toqqiz er,noiloj bemorgaga to'qqiz domla ozdir)

Gelin altın taht getirmiş - çıkmış kendisi oturmuş.(Kelin oltin taxt olib kelibdi yu,o'zi o'tirib olibti)

Gelin girmedik ev olur, ölüm girmedik ev olmaz.(Kelin kirmagan uy bo'lishi mumkin, ammo o'lim kirmagan uy bo'lmaydi)

Görmemişin oğlu olmuş, çekmiş çükünü koparmış.(Ko'rmaganing ko'rgani qursin)

Gurbete kız verme yiter gider, denize taş atma batar gider.(Uzoqqa qiz berma yo'qolib ketar, dengizga tosh otma botib ketar)

İki kardeş bir evde geçinememiş, yedi bacanak bir çavdar sapının gölgesinde geçinmiş. İkki aka-uka bir uyda kelisha olishmabti, yetti boja bir javdar(bug'doy sopinin soyasida keliship yashashipdi)

İki karılı bittən, iki analı süttən ölür.(İkki xotini bor bitdan, ikki onasi bor suddan o'lar)

İş bilen, eş bilen, aş bilen yanılmaz.(Ish ,es, osh biluvchi adashmas)

İyi günümün dostu, kötü günüm geçti, gel! (yaxshi kunim do'sti, yomon kunim o'tdi, kel!)

İyi koca karıyı gül, yaprak; kötü koca kül, toprak yapar.(Yaxshi er xotinni gul yaproq qilar, yomon er kul, tuproq qilar.

Kadın erkek için şeytan gibidir (Ayol erkak uchun shayton kabidir)

Kaldın mı oğul eline, müdara eyle geline.(Qoldingmi o'g'il qo'liga, murosqa qil kelin bilan)

Kardeş arasına söz katan sözüyle kalır (Aka-uka haqida gapirgan kishi gapi bilan qoladi, ya'ni "aka-uka o'rtasida muammo yuzaga kelganda aralashmaslik kerak, bugun urishsalar, ertaga yarashib ketishadi").

Kardeşin düşmanlığı, karşidan düşman çıkıncaya kadardır (Aka-uka orasidagi dushmanlik ro'paradan dushman chiqqunga qadar, ya'ni "aka-uka o'zaro kelishmay qolishsa-da, o'z ishlariga boshqasining aralashishini istashmaydi")

Kardeş kardeşi bıçaklamış, dönmüş de yine kucaklamış (Aka ukasini pichoqlabdi, orqasiga o'girilib, yana quchoqlabdi, ya'ni "aka-uka orasidagi munosabat baribir buzilmaydi, ular vaqtincha kelishmay qolishsa-da, baribir tez yarashishadi")

Karı hasta olacağına ben olsam, ben öleceğime karı ölse.(Xotin kasal bo'lguncha men o'lsam bo'lmasmidi, men o'lgancha xotin o'lsa bo'lmasmidi)

Karı ile silah emanet verilmez.(Xotin va qurol omonatga berilmas)

Karı koca ipek araya giren böcek.(Er-xotin ipak, oraga kirgan pashsha)

Karının kötüsü geceyi, atın kötüsü yolu uzatır.(Xotining yomoni kechasini, otning yomoni yo'lni uzoq qiladi)

Kart ağacın eğilmesi güç olur ('Qattiq daraxtning egilishi qiyin bo'lur')

Kız evi naz evi.(Qiz uyi noz uyi)

Kız evlendikten sonra çok damat bulunur.(Qiz turmushga berilgach ko'p kiyov topiladi)

Kızını dövmeyen dızini döver (Qizini mushtlamagan tizzasini mushtlar);

Kızı rahat bıraksan (bırakma), ya davulcuya gider, ya zurnacıya.(Qizni bemalol qo'yma,yo dovulchiga borar,yo surnay chalar)

Kocam gitti evim şaştı, kocam geldi evim taştı.(Erim ketti uyim adashdi,erim keldi uyim toshdi)

Komşu komşu olsa, komşunun kör kızı kocaya gider.(Qo'shni qo'shni bo'lsa qo'shining ko'r qizi erga teyadi.

Kuzudan post ayidan dost olmaz (qo'y (terisi)dan po'stin, ayiqdan do'st bo'lmas)

Oğlağı ye, oğluna duyurma.(Uloqni ye,o'g'lingga bildirma)

Oğlan sofra yazmayı babadan, kız kapı gezmeyi anadan öğrenir.(O'g'il dasturhon yozishni otadan,qiz eshikma-eshik yurishni onadan o'rganadi)

Olmayacak oğlan, bitmeyecek tarlaya tohum eker.(No shud o'g'il,unmaydigan dalaga urug' ekadi)

Oynamasını bilmeyen gelin yerim dar dermiş.(O'yinni bilmaydigan kelin joy tor debti)

Sen ağa, ben ağa, bu ineği kim sağar? (Sen og'a, men og'a, bu sigirni kim sog'a (di)?

Sen zot ben zot, ata kim verecek ot? (Sen zot, men zot, otga kim beradi o't?)

Sevilmeyen gelinin selamı yanlış gelir.(Suyulmagan kelinin salomi noto'g'ri eshitiladi)

Sırrını verme sırdaşına, darılır bir gün kakar başına (Siringni berma sirdoshingga,bir kun jahli chiqib solar yuzinga).

Tarlayı taşlı yerden, kızı kardeşli yerden (Dalani toshli joydan, qizni qardoshli joydan).

Yağmurda dostun atı, düşmanın koyunu satılsın (Yomg'irda do'stning oti, dushmanning qo'yi sotilsin).

Yaman komşu, yaman avrat, yaman at: birinden göç, birini boşa, birini sat (Ёмон қўшни, ёмон хотин, ёмон от, биридан кўч, бирини талок қил, бирини сот).

Yerine düşmeyen gelin yerine yerine eskir (Яхши жойга тушмаган келин, қийналиб, қийналиб қарийди).

Yitiren annesinin koynunu arar (Yo`qotgan onasining qo`ynini qidiradi);

Yuvan ıssız kalacağına, oğlun öksüz kalsın (Ховлинг кимсасиз қолгандан кўра, ўғлинг етим қолсин).

Yük devesi bağırған olur (Yuk tashib borayotgan tuyu baqiroq bo'ladi)

Yükü çeken deve bozular (Yuk ko`targan tuyu bo`zlovchi bo'ladi)

Zahmeriden sonra ekilen darıdan, kocasından sonra kalkan karıdan hayır gelmez (Муддатидан кейин экилган тарикдан, эридан кейин турадиган хотиндан хайр келмайди).